

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**Kasb ta'limi fakul'teti**  
**«Himoyaga ruxsat etilsin»**  
**Kasb ta'limi fakul'teti dekani**  
**\_\_\_\_\_ Ya. U. Ismadiyarov**  
**«\_\_»\_\_\_\_\_2016 y.**

**5110800 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim  
yo’nalishi 4-bosqich guruh talabasi  
Tojiboyeva Diyora Muhiddin qizining**

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**Mavzu: O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov  
hayoti va ijodi**

**Talaba: \_\_\_\_\_D.Tojiboyeva**  
**Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ dotsent**  
**N.Tolipov**  
**Taqrizchi: \_\_\_\_\_U.Xakimov**  
**Taqrizchi: \_\_\_\_\_S.Abdirasilov**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»**  
**Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi**  
**kafedrasi mudiri \_\_\_\_\_dots.**  
**R.Sh.Xalilov**

**Toshkent 2016**

**MAVZU: O'ZBEKISTON XALQ RASSOMI RUSTAM  
XUDOYBERGANOV HAYOTI VA IJODI**

**MUNDARIJA:**

**KIRISH.**

**I-BOB. O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING RIVOJLANISHI  
TARIXIDAN**

1. 1. Respublikada tasviriy san`atning rivojlanishi.....	12
1. 2. O'zbekistonda ijod qilayotgan taniqli rassomlar to'g'risida.....	14
1. 3. Manzara janrida ijod qilayotgan rassomlar.....	20

**II-BOB. O'ZBEKISTON XALQ RASSOMI RUSTAM  
XUDAYBERGANOV HAYOTI VA IJODIGA CHIZGILAR**

2. 1. Ijodkorning bolalik yillari va tasviriy san`atga kirib kelishi.....	24
2. 2. Rassomning turli janrlarda yaratgan asarlari haqida.....	35
2. 3. Rustam Xudoyberganovning O'zbekiston tasviriy san`atiga qo'shgan hissasi va yoshlarga badiiy ta`lim berishda uning ahamiyati.....	44

**II-BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR  
TAHLILI**

3. 1. Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va o'tkazish metodikasi.....	62
3. 2. Olingan natijalar tahlili.....	63

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

**ILOVALAR**

**Tadqiqotning dolzarbligi.** O`zbekiston Respublikasi xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o`rganish va tahlil etish g`oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo`ldiki, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - biz bosib o`tgan yo`limizni baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o`tmishdagi boy an`analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog`imiz kerak»<sup>1</sup>. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san`atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo`lgan ajoyib san`at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma`noda respublika hukumati tomonidan xalq ta`limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yili «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi. Unda «O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko`p asrlik an`analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan<sup>2</sup>.

Mustaqil respublikamizda amalga oshiralayotgan ijobiy o`zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ma`naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o`rin olishida o`zining samarali natijalarini bermoqda. Keyingi vaqtda hamma sohalarda bo`lgani kabi oliy ta`lim tizimida, oliy o`quv yurtlarida ham talaygina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hususan, oliy o`quv yurtlarida iqtidorli talabalarni tayyorlashda yangi o`quv rejalar, namunaviy dasturlar tuzilmoqda.

Respublikaning turli oliy o`quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida yoshlarga milliy san`at namunalarini o`qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli,

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. «O`zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari».-T.: «O`zbekiston», 1995, 9-b.

<sup>2</sup> Qarang: «Xalq ta`limi» jurnali, 1992-yil, 10-12 son, 1-bet

metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda. Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san'at hususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetlarida, kasb-hunar kollejlarda olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Tasviriy san'at fani oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy san'at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlar, jumladan qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san'at ta'limi davlat standartlari asosida, yoshlarga tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi yillarda mo'ljallangan istiqbolli yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom pedagoglarni tayyorlash muassasalarining ish faoliyatini ilmiy uslubiy jihatdan tahlil etish.

3. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali yoshlarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdir.

Tasviriy va amaliy san'at eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod

ifodasi. Bobokalonlarimizning hayot yo`lini, go`zallikka bo`lgan intilishini o`tmishdan saqlab qolingan ana shunday moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o`rgana boramiz.

XX asr boshlarida Toshkent va Samarqandda bir qancha badiiy maktab va studiyalar tashkil etilib, ularga iqtidorli rassomlar rahbarlik qilganlar. (S. P. Yudin, I. S. Kazakov va boshqalar). Ushbu to`garak studiyalarda keyinchalik mashhur rassom bo`lib yetishgan Usta Mo`min (A. Nikolaev), A. Volkov, B. Lavrenev va boshqalar mehnatga undovchi, turli nuqson va kamchiliklarni fosh etuvchi xajviy plakatlar bilan, 20-yillarda esa moybo`yoq bilan yaratilgan asarlari orqali elga tanildi. Keyingi yillarda I. Ikromov, M. Xakimjonov, B. Jukov, V. Ufimtsev, O. Tatevosyan, P. Benkovlar ham tasviriy san`atni rivojlanishiga o`zlarini hissalarini qo`shdilar.

30-yillarda B. Xamdamiy, O`. Tansiqboev, A. Siddiqiy, L. Abdullaev kabi o`zbek rassomlari o`zlarining dastlabki ijodiy ishlari bilan xalqqa tanildilar.

40-50 yillar rassomlari o`zlarining mahoratlarini egallashlari yo`lidagi yangi bosqich bo`ldi. R. Temurov, A. Abdullaev, Ch. Axmarov, Sh. Hasanova, V. Kaydalov, V. Evenko, M. Nabiev, R. Ahmedov, Z. Inog`omov, M. Saidov, T. Oganosov, Yu. Elizarov kabi o`nlab rassomlar manzara, portret, tarixiy, natyurmort, maishiy janrlarda barakali ijod etib turli ko`rgazmalarda muvaffaqiyat qozondilar, hamda o`zbek tasviriy san`atini dunyoga tanitdilar.

60-80 yillar tasviriy san`atida, ayniqsa yoshlar ijodida turli badiiy uslublarning takomillashgani ko`zga tashlandi. Ko`pgina rassomlar ma`morlar bilan hamkorlikda yaratgan mozaik panno, devoriy rasmlar bir qancha monumental binolarni serhasham qildi. O`sha yillarda Q. Basharov, G. CHiganov, A. Siglentsev, T. Muxamedov, M. Kagarov va boshqalar dastgohli grafika va kitob grafikasi sohasida samarali ijod qildilar.

Hozirgi vaqtda B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov, G`. Abduraxmonov, A. Mo`minov, Ya. Salpinkidi kabi sermahsul rassomlar bilan bir qatorda o`nlab yosh ijodkorlar mustaqil O`zbekistonning tasviriy san`atini butun jahonga namoyish etishda o`zlarining ulkan hissalarini qo`shmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan 1997 yilda O`zbekiston badiiy akademiyasi tashkil etildi. Uning tarkibida rassomlar uyushmasi, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda, Toshkent shahrida bir qator badiiy kollej va litseylar tashkil etilib, faoliyat ko`rsatmoqda. Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi va deyarli barcha viloyatlarda, Respublika rassomlar uyushmasining bo`limlari samarali ish olib bormoqda.

Hozirda mustaqil Respublikamizdagi, oliy o`quv yurtlarida turli mutaxassis fanlar bilan bir qatorda tasviriy san'at fani ham chuqur o`rgatilmoqda. Rangtasvir fani bo`yicha olib borilayotgan o`quv mashg'ulotlari bo`lajak yosh pedagoglarni san'at ilmini ham nazariy, ham amaliy mukammal egallagan mutaxassislar qilib yetishtirishga qaratilgandir. Ayni kunlarda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tirishqoq, bilimdon, zukko va eng muhimi shu kun talablariga «labbay» deb javob bera oladigan mutaxassis o`qituvchilar bo`lishi lozim.

Tasviriy san'at bo`yicha Rossiyada, shuningdek O`zbekiston olimlari ham bu sohada salmoqli mehnat qilib kelmoqdalar.

Tadqiqot ishi dolzarbligining yana bir tomoni shundaki, oliy o`quv yurtlari talabalarini tasviriy san'at fanidan savodli rasm chizishga o`rgatish, badiiy dunyoqarashlarini shakllantirishdan iboratdir.

Masalani shu kunlardagi ahvolini o`rganganimizda shu narsa ma'lum bo`ldiki, oliy o`quv yurtlarida qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya o`quv mashg'ulotlari namunaviy dasturlar asosida olib borilayotgan bo`lsada shu sohaga oid o`quv-metodik qo`llanmalar, rangli slaydlar, metodik bosqichli ko`rgazmali qurollar yetarli darajada emasligi ayrim qiyinchiliklarga olib kelmoqda.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Ma'lumki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o`ynovchi sub'ektlar sirasida o`qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Bizning yurtimizda asrlar davomida o`qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko`rsatilgan. O`z navbatida, uning professional tayyorgarligi va mahoratiga katta e'tibor berilgan va unga yuksak talablar

qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba ulug' mutafakkirlar – Abu Nasr al-Forobiy, Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida talabalarga mukammal bilimlar berish, shaxsni kamol toptirish va tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida milliy madaniyatni shakllantirish, tasviriy san'at turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida yoshlarga yuksak estetik bilimlarni berish, shuningdek, tasviriy san'atdan yuksak mahoratni qaror toptirish masalalari ko'plab yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: X. Abdukarimov, A. Aliev, D. O. Himmataliev, O. Xudoyorova, R. Hasanov va boshqalarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin.

Yoshlarga ta'lim berishning Oliy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini shakllantirish o'z-o'zini boshqaruvi asosida o'qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlik tashxisi masalalari N. A. Muslimov M. A. Abdullajonov, O. A. Abdulina, A. A. Akbarov, M. M. Axmedjonovlar tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasi va yechimini topgan.

Ta'lim tizimi uchun, hususan umumiy o'rta ta'lim kasb-hunar kollejlari uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnologik yondashuvlar V. S. Kuzin, A. A. Melik-Pashaev, N. Oydinov, Z. N. Novlyanskaya, N. N. Rostovtsev, T. Ya. Shpikalova, B. P. Yusov kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, globallasuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bir davrda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda keyingi yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarida bu muammoning yechimida yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. Bizning ilmiy tadqiqot ishimizga keng aloqador bo'lgan ishlardan B. Boymetovning «Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari asosida tayyorlash», J. Darmentovning «Qoraqalpog'iston Respublikasi milliy san'ati vositasida tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashning

nazariy asoslari», shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlari A. Sulaymonov, N. Tolipov, R. Hasanov, B. Qo'chqorov, N. Abdullaev, S. Abdullaev, B. Azimov, O. Qodirov va boshqalar tomonidan ko'plab shu kabi ilmiy ishlar tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan talabalarni tasviriy faoliyatga yo'naltirishda oliy o'quv yurtlarida talabalarni natyurmort ishlashga o'rgatish metodikasini ishlab chiqish orqali tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. O'zbekiston sharoitida bu omilning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy negizlari hamda zamonaviy yondashuvlari mavjudligi bois ham bu yo'nalishda maxsus tadqiqot o'tkazishni taqozo etadi. Shu va boshqa omillar bitiruv malakaviy ish mavzusini **«O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov hayoti va ijodi»** deb nomlashga asos bo'ldi. Mazkur muammoni tadqiq qilishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan va boshqa mualliflarning ilmiy asarlari, monografiyalari biz tadqiq qilayotgan muammoni ham nazariy, ham amaliy mushohada qilishda katta amaliy yordam berdi.

**Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish yo'nalishi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** quyidagi o'quv tarbiyaviy masalalarni qo'yadi, ya'ni:

- Talabalarga tasviriy san'atdan nazariy va amaliy ta'lim berish;
- Talabalarga tasviriy va amaliy san'at tarixi va rivojlanish bosqichlari, qonun-qoidalari haqida ma'lumot berish;
- Talabalarni tasviriy san'at orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Talabalarga tasviriy san'atdan metodik tavsiyanomalar, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratib berish;

**Tadqiqot ob'ekti** – Oliy o'quv yurtlarining qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlari jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** – Oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at



mashg'ulotlarini tashkil etishning mazmunli va samarali metodlari.

**Tadqiqotning vazifalari:**

1. Oliy o`quv yurtlarida talabalarni tasviriy faoliyatga yo`naltirishda qalamtasvir, rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanish jarayoni va tasviriy san'at fanlarini o`qitish holatini o`rganish va tahlil qilish.

2. Oliy o`quv yurtlarida talabalarni tasviriy faoliyatga yo`naltirishda qalamtasvir, rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularning bilim va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

3. Talabalarni tasviriy faoliyatga yo`naltirishda qalamtasvir, rangtasvir mashg'ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularni kasbga o`rgatishda tasviriy san'at fanlarini o`qitishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning farazi:** – Oliy o`quv yurtlarida maqsadga muvofiq tashkil etilgan tasviriy san'at mashg'ulotlari talabalarda quyidagi bilim va ko`nikmalarni shakllantirishi mumkin;

- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan nazariy va amaliy bilimlarini yuksaltirish va bilganlarini o`quvchi yoshlarga yetkaza olish qobiliyatini o`stirish;
- tasviriy va amaliy san'atga bo`lgan mehr-muhabbat tuyg`usini uyg`otish;
- badiiy ijodga yo`naltirish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** sifatida O`zbekiston Respublikasi «Ta'lim to`g`risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularni faoliyatini boshqarish to`g`risida»gi qarorlarning qabul qilinishi, mavzuga oid pedagogik, psixologik adabiyotlar, buyuk mutafakkir va tasviriy va amaliy san'at ustalarining qalamtasvir va rangtasvir haqida qoldirgan boy meroslaridan foydalaniladi.

**Tadqiqotning tajriba-sinov bazasi:** tadqiqotning asosiy tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida amalga

oshirildi.

### **Ilmiy tadqiqot ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi:**

**Birinchi bosqich** (2014-2015 o`quv yili): tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar va dissertatsiya ishlarini o`rganish va tahlil qilish, pedagogik ish tajribalari bilan tanishish, o`quv jarayonini kuzatish, tadqiqot mazusining asosnoma-rejasini ishlab chiqish, me`yoriy, metodik, huquqiy, joriy yo`l-yo`riq hujjatlari bilan tanishish. Tajriba-sinov maydonlarini belgilash, mavzu yo`nalishi bo`yicha pedagogik tadqiqotlar o`tkazish, tadqiqot natijalari haqida maqolalar tayyorlash va e`lon qilish.

**Ikkinchi bosqich** (2015-2016 o`quv yili): pedagogik tadqiqotlarni yanada faollashtirish, muhim xulosalar chiqarish, tajriba-sinov maydonlarida shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini olib borish va o`tkazish, tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish va ommalashtirish, tadqiqot ishi mazmuniga aniqliklar va qo`shimcha materiallar kiritish, tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy maqolalarda yoritish, ishlab chiqilgan metodika bo`yicha olingan natijalarni umumlashtirish, dissertatsiya holiga keltirish va himoyaga olib chiqish belgilangan.

### **Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:**

Har bir millatning o`z urf – odatlari, an`analari milliy qadriyatlari ma`naviy va madaniy meroslari mavjud bo`lib u millat ana shu urf odatlarga sodiq qolgan holda asrab kelajak avlodga yetkazib keladi. O`zbek xalqining ham ana shunday boy ma`naviy madaniy merosi borligini butun jahon tan olmoqda. Men ham magistrlik dissertatsiyamni ilmiy yangiligi qilib ota – bobolarimiz yaratgan urf-odat, an`analarini momolarimiz foydalangan palaklar, qiyiqcha, shuningdek shoyi atlas va adraslardan foydalangan holda yosh avlodni ana shu ota – bobolarimiz foydalangan turli milliy sopol idishlar, naqshinkor mis qumg`onlardan foydalanib natyurmort kompozitsiyasini tuzishni va talabalarga ana shu qadriyatlarga asoslanib natyurmort kompozitsiyasini bajarishga o`rgatishni maqsad qildim.

- Talabalarni tasviriy faoliyatga yo`naltirishda qalamtasvir, rangtasvir mashg`ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanish jarayoniga nisbatan qo`yiladigan talablarni asoslanishi;

- Oliy o`quv yurtlarida bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilarini tayyorlashda tasviriy san`at mashg`ulotlarining samarali usul va metodlardan foydalanib, ularning bilim va malakalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilishi;

- Yoshlarni tasviriy faoliyatga yo`naltirishda qalamtasvir va rangtasvir mashg`ulotlarida samarali usul va metodlardan foydalanib, ularni kasbga o`rgatishda tasviriy san`at fanlarini o`qitishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqilishi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Oliy o`quv yurti o`qituvchilariga metodik qo`llanmalar ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish metodlarini ko`rsatib berishdan iborat. Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilarini tasviriy san`at bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish hamda o`z kasbining malakali mutaxassisi bo`lib yetishishlariga erishish.

# **I-BOB. O'ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING RIVOJLANISHI TARIXIDAN**

## **1. 1. Respublikada tasviriy san'atning rivojlanishi**

CHex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz hamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustaxkamlab bormog'imiz lozimki, shunda ikkilanishga ham, esdan chiqishga ham imkon qolmaydi».<sup>2</sup>

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovski aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashni yo'llari va usullari, ya'ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar».<sup>3</sup>

Tasviriy san'atning tarixi, rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Yevropa singari Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda kasb mahorati, yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bera oladi deb bo'lmaydi. Gap shundaki, talaba buyum va narsalarni o'ziga xos ranglarini va ularni yorug'lik ta'sirida o'zgarishlarini ko'rib tushunsa ham rangtasvirchi rassom bo'la olmaydi, chunki rangtasvirni umumiy qonuniyatlari (ranglar nisbati, issiq va sovuq ranglar, kolorit ranglar uyg'unligi) mavjud. Bir qancha rassomlarni tarbiyalagan, ajoyib pedagog-rassom D.N.Kardovski aytganki: «naturada ham, ishni boshqarishda ham asosiy e'tibor shunga qaratilishi kerakki, butun darsni o'tish jarayonida ranglar nisbatini hisobga olish zarur... Doimo rang munosabatlari bilan ishlash va fikrlashga o'rganish kerak».Ta'lim

olish jarayonida talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari-rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi. Bundan tashqari rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirida qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarni fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya-yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma-ketlikda tasvirlay bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir. Rangtasvir nazariyasidagi ushbu asosiy savollarni bayon qilishga o'tamiz. Qalamtasvir hamda rangtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarini tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Bu fanlar talabalarga I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir. Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzida tasvirlash printsiptida qurilganidir. Natyurmort ishlash esa tasviriy san'atning ilmiy negizini tashkil etadigan perspektiva, rangshunoslik, yorur-soyalarni o'rganish uchun, ayniqsa, keng imkoniyatlar yaratadi. Oddiy geometrik jismdan tashkil topgan natyurmortdan boshlab, vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator predmetlardan iborat natyurmortlar qo'yib, ularning xaqqoniy tasvirini yaratish rassomlik sirlarini o'rganishda muhimdir..

Bo'lg'usi pedagog-rassomlarga buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan kishilar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlari San'at fakul'tetidagi mutaxassis o'quv fanlarining asosi sifatida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga quyidagi asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

#### 1. Kompozitsiya asoslari.

2. Chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning nisbatlari.
4. Perspektiva qonunlari.
5. Harakat.
6. Bajarilayotgan tasvirdagi yorug' va soyalarning qonuniyatlari.
7. Tasvirni metodik ketma-ketlikda to'g'ri bajarish.

## **1. 2. O'zbekistonda ijod qilayotgan taniqli rassomlar to'g'risida**

O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xududida o'rta asrlar san'atida musulmon SHarqi mamlakatlarida bo'lgani kabi naqsh — bezak asosiy o'rinni egallagan. Girih, islimiy naqshlarda uslublashtirilgan o'simlik bo'laklari ko'p ishlatilgan. O'rta Osiyoda shakllangan miniatyura maktablari vakillari qo'lyozma kitoblarga ishlagan rasm va bezaklar bo'yoqlarining uyg'unligi, zamin sifatida manzara va me'morlikka e'tiborning kuchliligi bilan diqqatga sazovor. O'rta Sharq san'ati, jumladan, Hirot, O'rta Osiyo miniatyura san'atida manzara yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning mo'jaz asarlarida manzara, tabiat ko'rinishi mahorat bilan ishlangan. Uning davomchilari Mahmud Muzahhib, Abdulla Musavvir, Muxammad Murod Samarqandiy, Muhammad Nodir Samarqandiy va b. ijodida ham manzara ko'rinishlari muhim o'rin egallaydi.

O'zbek manzara janrining haqiqiy rivojlanishi XX asrga to'g'ri keladi. Shu davrda dastgoh san'atida manzaraning nodir namunalari yaratildi. P. Benkov, O'. Tansiqboev, N. Qoraxon, R. Temurov, R. Ahmedov, N. Qo'ziboev, A. Mirsoatov va boshqalar bu sohada samarali ijod qildilar va o'zbek tasviriy san'atida manzara janri rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rangbarang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay

tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'ri ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi; «Bu 100 % qalamtasvir va 100 % rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir»

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'ri beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liq.

Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina, (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tushirish va x.k.) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: «Rasm chizish!». Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: «Rasm chizish va yana rasm chizish!» - rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan.

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, xaykaltaroshlik, me'morchilikda) «har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan».

«Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir, - deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan «Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir

ustasi bo'lib yetishadi».

«Shunday narsa mavjudki, u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu - qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, xaykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi,»- deb aytgan Karuchchi.

«Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir» – degan Titsian. U qarigan chog'larida ham, ko'mir yoki mel bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'lmagan.

«Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir», - deya doim takrorlagan V.E. Makovskiy.

«Qalamtasvirni puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi», - deb ta'lim bergan P.P. Chistyakov. I.E. Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan, va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A.M. Vasnetsov, P.P. Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, «uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir» edi, deb eslaydi.

Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl), uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan.

Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o'rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jixatlarni to'laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda bu jihatlar mavjud bo'lmasa, tasvir o'ta ehtiyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi.

Rangtasvirda ranglar qalamtasvir bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Ya'ni ishni rangda boshlash uchun, qalamda naturani zarur joylarini belgilab olib, shaklning shartli chiziqlarini unutib, ranglar vositasida shakl hajmini tasvirlash darkor.

D.N.Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu qalamtasvirning rangda davom etishi deb aytsak, shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan



boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P.Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib, shunday yozgan: «Rangtasvirning haqiqiy usuli – bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmadir».

Haqqoniy san'atda asosiy badiiy qiyofa, bu qalamtasviridir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqea va insonlar haqida ma'lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya avvalo qalamtasvirda paydo bo'ladi (plastik g'oya) va qayd etiladi. Hattoki, haykaltarosh va me'morlarning dastlabki g'oyalari qalamtasvirdagi qoramadan boshlanadi.

Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to'g'risidagi umumiy o'ylar doimo qalamtasvirda paydo bo'ladi.

Qalamtasvir san'atining haqiqiy ustasi bo'lish va uni to'g'ri tushunish turli yo'nalishdagi rassomlarga: grafik rassom, me'morga, saxna bezakchisiga, monumentalchi rassomga va boshqalarga juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassomi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo'lsa, uni haqiqiy ijodkor deb bo'lmaydi.

Xattoki, haqqoniy qalamtasvir chizish maktabida tarbiyalangan rassomlar tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijodiy mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi.

Agar bezatuvchi, rassom pedagog yoki monumentalchi kabi ixtisosliklardagi rassom haqiqiy qalamtasvir asoslarini puxta o'rganmay turib asar yaratishni boshlasa, u dastgohli san'at asarini chala yaratilishiga, tasvirda soxta manzaraning paydo bo'lishiga, haqiqiy inson qiyofasini to'laqonli aks etmasligiga, sababchi bo'lib, tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh shogird rassom qalamtasvirda quyidagi bilim va malakalarni puxta o'zlashtirmog'i lozim:

1. Kuzatuv perspektiva (ufq chizig'i, yassi jismlar va ufq chizig'i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarni konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, inter'yer va ekster'yer).

2. TSilindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi.

3. Geometrik shakllarda soya-yorug' munosabatlari (kub, tsilindr va shardagi soya-yorug'ning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).

4. Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarni soya-yorug' xususiyati, tus munosabatlari, hajmni ko'rsatishda chiziq va «shtrix»ni o'rni, fazo va moddiylik).

Qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lmoq lozim: qo'yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni seza bilish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan soya-yorug' orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jixatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl xajmini tasvirlashda tusni o'rnini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi.

Tasvirlashga nisbatan bo'lgan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Asarlar aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va g'orlarda turli tavsir va belgilar qoldirganlar.

Vaqt o'tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari ham aks eta boshlagan. Zaravut- kamar (Surxandaryo) g'oridan topilgan jahon e'tiboriga molik ushbu tasvirda odamlarning yovvoyi buqaga tosh va nayzalar otib, so'ngra uni tikka qoyadan pastga tushirib yuborish sahnasi tasvirlangan.

Tasvirlarning juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik holatlari kishini lol qoldiradi. Ushbu tasvir qadimgi tosh asri (mezolit)ga tegishlidir.

1957 yili Xo'jakentda (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazovordir. Uning o'lchami bug'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metrni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yovvoyi buqa rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shaklida bo'lib, toshning bo'rtiqligi (relefi) hisobga olinib ishlangan. Bu ikki tasvir so'ngi paleolit davriga tegishlidir.

Eramizdan avvalgi SH-P asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan suratlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, yer, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Ibtidoiy davr odamlari qoya va toshlarga sher bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurg'izib chizganlar. Keyin esa tasvirlarni pushtirang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyo qarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladi va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'la boshladi. Odamlar tasvirlash borasidagi dastlabki malakalarini tabiatni bevosita kuzatish unga taqlid qilish yo'li orqali egallaganlar. Tasvirlashga o'rgatish paleolit davrida ham rivojlanmagan edi. Faqatgina keyinchalik neolit davriga kelib dehqonchilik va xunarmandchilikning boshlang'ich bosqichida insonning mehnat qilishi natijasidagina san'atga bo'lgan qiziqish uyg'ona bordi.

Rasm chizishga nisbatan ishtiyoq insonlarning kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bezash orqali rivojlandi. Eng avvalo sopol idishlarga turli naqsh va tasvirlar tushirish paydo bo'la boshladi. Shu alpozda tasvirlar ishlashning dastlabki metodlari yuzaga keldi. Endi hunarmand o'z shogirdining tasvirlarini qanday ishlashini kuzatib unga yo'l-yo'riqlar ko'rsatardi. Chunki shogirdning ustoz ko'rsatmalariga rioya qilishi keyinchalik shu hunarning davom etishda muhim o'rin egallagan.

Shunday qilib tasvir bajarishni o'rgatishning dastlabki usullari paydo bo'ldi. Lekin ushbu metodlar aniq ishlab chiqilgan, yo'l-yo'riqlar va tamoyillarga asoslanmagan edi. Tasviriy san'atga o'rgatish hamda maktablar tashkil etish ancha keyin boshlandi.

Etuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o'zaro hamoxangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko'pchiligi avvalambor yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.SHishkin, V.E.Makovskiy, V.D.Polenov, I.E.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, A.Abdullaev, O'. Tansiqboev, Z.Inog'omov, M. Nabiev, R. Ahmedov, B. Jalolov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov kabilar kiradi.

### **1.3. Manzara janrida ijod qilayotgan rassomlar**

Rangtasvirning bugungi kundagi geografik xududi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, Samarqand, Andijon, Buxoro, Namangan, Nukus, Toshkent kabi ko'zga ko'ringan markazga aylanmoqda. Samarqandda eng yorqin va iste'dodli rassom A. Isayev hisoblansa, Andijonda O. Bakirov, U.Boltaboev, N. Holiqov singari rangtasvirchilar samarali ishlamoqdalar. Namanganda esa I. Valixo'jaevni ko'rsatish mumkin. Buxorodagi o'ziga xos va iste'dodli rangtasvirchilar orasida M.Abdullaev, B.Salomov, Z. Saidjonovlarni alohida ta'kidlash joiz. 1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasiga uzviy bog'liq tarzda uning Qoraqalpoq bo'limi tashkil etildi. Unga Akademiyaning haqiqiy a'zosi J.Izentoev rahbarlik qilgan edi. Mazkur bo'limda B.Aytmurodov, V.Jabbarov, B.Serekeyev kabi realistik yo'nalish asosida ijod etayotgan, iste'dodli musavvirlar ijod qilmoqdalar.

Realistik yo'nalishni Mustaqillik yillarida sermahsul ijod qilayotgan an'anaviy tarzda keksa va o'rta avlod rassomlar ijodiga mansub deyish mumkin. Ular orasida O'zbekiston xalq rassomlari va faxriy akademiklar R.Ahmedov, N.Qo'ziboev, M.Nabiev, T.Oganesov, M.Saidov, M.Yo'ldoshev, R.Choriev, T.Kuryazov, Akademiyaning haqiqiy a'zolari S.Abdullaev, B.Boboev,

V.Burmakin, J.Izentoev, A.Ikromjonov, T.Mirjalilov, Y.Tursunnazarov, T.Qo'ziev, shuningdek, taniqli rangtasvirchilar R.Xudoyberganov, M.Nuriddinov E.Masharipov, V.Enin, Z.Fahriddinov, A.Aliqulov, Sh.Qo'zieva, R.Rizomammedov, O.Mo'inov, R.Gagloeva, A.Mirsoatov, Yu.Taldikin, Yu.Strelnikov, Yu.Mel'nikov, M.Toshmurodov, V.Ziyoev, A.Mo'minov va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Ularning asarlarida bu yo'nalish uchun an'anaviy bo'lgan tarixiy va janrli kartinalar, portret, manzara va natyurmort janrlari va mavzular o'z ifodasini topadi.

1990 yillarda manzara janrining ustalari M.Saidov, R.Ahmedov, R.Choriev, V.Ziyoev, Yu.Strelnikov, Yu.Taldikin, M.Toshmurodov, V.Enin, R.Gaglova, A.Mirsoatov, Ch.Bekmirov va boshqalar ijodida o'z rivojiga erishadi. Vodiy va tog'larning lirik manzaralari qatorida, qishloq va shaharning yangi hayot alomat va xususiyatlarini namoyish etuvchi janrli manzaralar yaratildi.

1990-2000 yillarda o'zbek rangtasvirining qiziqarli ko'rinishlaridan biri nazmiy-romantik uslubda milliy o'ziga xoslikni talqin etish avj oldi. Bu yo'nalishlarning kelib chiqishi uslubiga ko'ra turlicha ishlangan asarlarda, jumladan, Ch.Axmarovning 1950 yillardagi chiziqli rangtasvirida va 1970 yillar boshlaridagi Sh.Abdurashidov, A.Mirzaev, R.Shodievning yorqin ranglar gammasida bajarilgan kartinalarga borib taqaladi. Mazkur milliy romantik oqimda 1990 yillarda A.Mirzaev, R.Shodiev, O.Qozoqov, N.Shin, I.Valixo'jaev, Sh.Abdullaeva, Ch.Axmarov, I.Mansurov, S.Rahmetov, T.Shoymardanov va boshqalar yorqin bezakdor va chiziqli-shakliy asarlar yaratdilar.

A.Mirzaev, R.Shodievlarning asarlari shaklning erkin o'yini, rang va nurning kutilmagan ba'zan esa qarama-qarshi qorishiqlari, o'ta bezakdorlik, an'anaviy xalq san'atiga tayanganlik bilan ajralib turadi.

A.Mirzaev ijodi 1990 yillarda deyarli o'zgarishga uchramadi. Rassom asarlarida avvalgidek rangin ifodaviy vositalarini oddiy mavzular asosida kuchaytirishga intilish seziladi. 1991 yilda yaratilgan «O'tmishdan ertaklar», «So'qoqda», «Qizil tog' etagidagi uchrashuv» asarlari shu yo'sinda yaratilgan.

1998 yilda, Frantsiyaga ijodiy safaridan keyin yaratilgan turkum asarlari ham mana shu ranglar uslubiyatiga ko'ra bajarilgan.

Yirik rangtasvirchi rassom N.Shin ijodi yuqorida ta'kidlangan guruh asarlaridan keskin farq qiladi. Muallifning teran g'oyali asarlari bir vaqtning o'zida fojeaviy ohang beradi. «Xotira yo'li» nomli turkum asarlaridagi kayfiyatga salbiy ta'sir etuvchi ohanglar «So'qoq» turkumlarida quvnoq bezakdor ohanglar bilan almashinadi.

90 - yillar musavvir Akmal Nur ijodida muhim davr bo'lib, unda rassom ijodida plastik mukammallik va g'oyaviy yangilanishlar kuzatiladi. Uning falsafiy mushohadalari birmuncha o'zgarishlarga uchrab, yangi nihilizm va chorasizlik kayfiyatidan, shuningdek befarqlikdan kechgan holda, olamni idrok etishda hayotbaxshlik tamoyillari seziladi. 90-yillarning boshidagi evrilishlar birmuncha yorqin va asosli kechdi. Rassomning yangi umidbaxsh ijodiy kayfiyati yassi talqinlik va bezakdorlik, ranglar jilosi va yorqinlikda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda plastikaga bo'lgan qiziqish matoda o'zgarishsiz qoladi- uslubga ko'ra bezakdor bo'lgan asarlar polotnolarda silliq hajmli va zich fakturada ifoda etadi.

Umuman olganda musavvir ijodida muhabbat mavzusi va uning umuminsoniy ahamiyati yetakchilik qiladi. «Sevgi olmasi», «Muhabbat bog'i», «Muhabbat daryosi», «Muhabbat oroli» asarlari jozibali nomlangan. Mazkur asarlarda musavvir turli ramziy-majoziy timsollar, ya'ni oy, ho'kiz shoxi, baliq, qayiq kabilarni qo'llaydi. Biroq, ushbu kartinalarda asosiy ma'no va umumiy plastik yo'sinni olma mavzusi egallaydi. Ba'zan esa olma bo'lingan holda, uning fonida esa olmalar havoda muallaq holatda tasvirlangan. Mavzuning botiniy mazmuni asta-sekin ikkinchi planda berilib, olma tasviri muvaffaqiyatli joylashtirilib, uslubni mahorat bilan almashtirib turadi. Bu davrda yaratilgan asarlarning bosqichlari sezilarli darajada bo'lib, musavvirning 1998-yilda yaratilgan «Muhabbat oroli» polotnosi, 1995 yildagi asarlaridan tomoshabinga yengil kayfiyat baxsh etishi va kompozitsion yechimning nafisligi bilan ajralib turadi.

Rassomning bu turkumdagi kartinalari bezakdorlik uslubining nozikligi bilan 1998 yilda bajarilgan «Ilhom parisi», «Rishton natyurmorti», «Dahldorlik», «Doira chalayotgan qiz» asarlariga juda yaqin turadi. SHunday qilib mazkur asarlar rangtasvir vazifalarini rasmiylashtirishga urinish, yanada muayyan va mavhumroq plastik formulalarning ijlanishi bilan A.Nur ijodidagi yangi yo'nalishni aniqlaydi. A.Nur axloqiy-falsafiy xulosalarga intilmaydi. Uning turkum kartinalarida oydinlik, sharqona nafislik ko'rkamlik ufurib turadi, shaxsiy falsafa, pand-nasihat ko'rinmaydi. 90-yillarda tasviriy san'atga yangi kuchlar kirib keldi. Bu B.Ismoilov, T.Karimov, B.Muhamedov, D.Sodiqova, Z.Sharipovalardir. Ular ijodi zamonaviy tasviriy san'atni boyitish bilan birga ko'p jihatdan XXI asr istiqbolida uning o'ziga xos xususiyatini belgilab berdi.

O'zbekiston rassomlari bugungi kunda tarixiy xotiralarni tiklash, o'z badiiy merosini qayta mushohada qilish bilan birga jahon badiiy madaniyatining eng so'nggi yutuqlarini o'zlashtirmoqdalar. O'zbekiston rangtasvirchilari zamonaviy jahon badiiy jarayonida munosib o'rinni egallashga harakat qilib, ko'pgina xalqaro anjumanlar, ko'rgazmalar, salonlarda ishtirok etmoqdalar. Ular Yevropa, AQSH, Osiyo mamlakatlarining yetakchi ko'rgazma galereyalarida o'zlarining asarlarini dunyo ahliga namoyish etib kelmoqdalar.

## **II-Bob. O'zbekiston xalq rassomi Rustam Xudoyberganov hayoti va ijodiga chizgilar.**

### **2. 1. Ijodkorning bolalik yillari va tasviriy san'atga kirib kelishi.**

Rassom ko'p yillardan beri Toshkentda yashasa ham, asli o'zi Xorazimning olis Yuqori Do'rmon qishlog'idan. Bo'lajak rassom urush tugagandan bir yil o'tgach 1946 yilda tavallud topdi. Garchi ota-onasi tasviriy san'atga tushunmasa-da, farzandining rasm chizishiga qarshilik ko'rsatishmadi. Ular ko'proq musiqa va raqs san'atiga ixlosmand edilar. Yuqori Do'rmon qishlog'i Amudaryo qirg'oqlariga yaqin. Ularning hovlisi esa qishloqdan uzoqda, katta yo'l bo'yida joylashgan, qirg'oqqa yaqin edi. Bu hovli xorazimcha qilib qurilgan, atrofida kungirlar, katta yog'och darvoza, ichkarida tegirmon, tandirxona, molxona, omborxona va ayvonlar bo'lardi. Uylarini bobosining uzoq safarlarda harid qilgan, ko'proq Xitoy, Rossiyadan keltirilgan nafis jihozlar bezab turardi. Yo'l bo'yidagi hovli atrofi katta daraxtlar bilan o'ralgan, yozda soya-salqin bo'lar, yo'ldan o'tayotgan yo'lovchilar kun issig'ida biroz dam olish uchun kirib o'tirishardi. Oralarida darveshlar ham uchrar, Rustam ulardan ko'p yangiliklarni eshitardi. Har qanday yangi xabar yosh Rustam uchun bir olam quvonch edi. Ayniqsa, ko'chma kino-klub qishloqqa kelib, kinofilm ko'rsatishlarini intizorlik bilan kutardi. Kino namoyishlari unda katta qiziqish uyg'otgan edi. U kinoni nixoyatda sevib qoldi, bir filmni har safar qayta qayta ko'rsa ham zerikmasdi. "Filmlar orqali ko'p narsani o'rgandim, boshqa xalqlar san'ati, xayoti, turmush tarzini bilishga imkon yaratdi. Mening hayotimga juda katta o'zgarishlar, orzu havaslar uyg'otdi, -deb eslaydi Rustam. Kino san'ati meni o'ziga mahliyo etdi, ko'p narsani o'rgatdi. Rassomlikka ham qiziqishimni yanada oshirdi.

Oila a'zolari daryo yaqinidagi yerlarda dehqonchilik qilib, kun ko'rishar edi. Rustam ularga ergashib borar, u tengi qo'shni bolalar yo'qligi bois, o'zi bilan o'zi bo'lib, hayollarga sho'ng'igancha daryo qirg'og'idagi tekis qumlarga rasm chizishni mashq qilardi. Uning bolalikdagi ilk ijodi besh-olti yoshlarida ana shu daryo bo'ylarida boshlangan edi.

Rustam keyinroq, maktabda o'qib yurganidayoq, husnixat darsida harflarni juda



chiroyli qilib yozishi bilan o'qituvchisini hayron qoldirdi. Bu daryo bo'yidagi mashqlarini natijasi edi. Sakkiz yoshlar atrofida akasi unga Hamid Olimjonning "Oygu' va Baxtiyor"ertagini sovg'a qildi. Rustam kitobni bir necha bor o'qishda yodlab oldi. Bu bo'lajak rassomning eng birinchi kitobi bo'lib, unga chizilgan rasmlar bolani mahliyo qilib qo'ydi. Yosh bola uchun eng birinchi bo'lib taqdim etilgan narsalar hech qachon sedan chiqmaydi. Keyin maktab kutubxonasidagi kitoblarni o'rtoqlari bilan kim o'zarga o'qiydigan bo'ldi. Bu haqda xotirlab, rassom shunday deydi:"Kutubxonadagi ba'zi kitoblar turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarida bo'lsa ham o'qishga harakat qilardim, tushunmagan joylarini qayta qayta o'qib chiqardim va shuning bilan birga til ham o'rganardim".

Rustam maktabni bitirguncha, o'n to'rt yoshidan boshlab bog'bon, suvchi, kinomexanik bo'lib ishlab, mablag' topib oilasiga yordam berdi. Darsdan keyin dalada ishlab, dehqonchilik sirlarini o'rgansa, kechqurun dars qilish asosiy mashg'uloti edi. Shular orasida rasm chizishga vaqt topib, bilgan, ko'rgan narsalarini qog'ozga tushirishga intilardi. Bo'lajak rassom o'n ikki yoshligidan maktablar uzoqda joylashgani, qish kunlari sovuqda qatnashga qiyinligidan begona kishilar xonadonida turishga, ba'zi hollarda o'zi uchun ovqat pishirishga ham to'g'ri kelardi. Shunday bo'lsa ham, dars qoldirishga odatlanmagan edi. Rasm chizishga qiziqishi baland bo'lgani uchun sinfdoshlari maktab devoriy gazetalarini bezashga badiiy muharrir qilib saylashardi.

Oltinchi sinfda o'qib yurgan kezlarida sinfda rasm chizib o'tirganini ko'rgan sinfdoshlaridan biri uni adabiyot o'qituvchisiga aytib berdi. Bunga qiziqqan o'qituvchisi uni imtixon qildi, ya'ni sinfdoshlaridan birini o'tqazib, uni chizishini so'radi. Tezlik bilan chizilgan sur'atni ko'rib, u Rustamga albatta rassomlikka o'qishi kerakligini aytdi. Rustam ana shundagina rassomlik kasbi borligini bilib olgan edi.

Geografiya o'qituvchisi bundan xabar topib, unga fan bo'yicha ko'rgazmali qurollar yasashda yordamberishini so'radi, har xil xaritalar, diogrammalar, rasmlar ishlashni buyurar, paxta dalalarida ishlashdan ozodqilib qo'yardi. "Dala ishidan ko'ra, rasm chizib bersang, ko'proq foydang tegadi", -derdi geografiya

o'qituvchisi.

Rustam 1964 yilda maktabni bitirib, Toshkentga keldi. Lekin hech qayerga xujjat topshirolmay, Xorazimga qaytib ketdi. U tushkunlikka berilmadi, O'rta Osiyo daryo kemachilik tashkilotiga kema haydovchi, radist, motorist-matroschi, bo'lib ishladi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishni davom ettirib, tayyorgarlik ko'ra boshladi. Amudaryo bo'ylab Chorjo'y portidan to Mo'ynoqqacha daryoda suzib, daryoning go'zalligiga shaydo bo'ldi, qirg'oqdagi o'rmonzorlar, keng dalalar ajoyib ranglarda tovlanardi. Shu ishi tufayli ko'p shaharlarni kezdi, tanishlar, do'stlar orttirdi. Qishning izg'irin sovug'ida daryo muzlab, ularning kemasi qamalda bir hafta qolib ketgan kunlari ham bo'ldi. Tashqi olam bilan aloqa bo'lmay, fojiali voqealar guvohiga aylandi, qattiq ta'sirlangan paytlari o'zini qo'lga oldi. Bularning hammasi uning ayrim asarlarida u yoki bu tarzda aks etdi.

Rustam Respublika Rassomlik bilim yurtiga kirib o'qishni orzu qildi, ammo buunga nasib qilmadi. U bilim yurtida tehsil olayotgan talabalar oldiga borib turishni kanda qilmas, ularga havasi kelardi. Bo'lajak rassom Toshkentga o'qishga borishdan oldin haqiqiy rassomlarning rasm ishlash jarayonini ko'rmagan, malakali saboq olmaganligidan qiynalar, barcha hayot sinovlariga dosh bera oladigan darajada sabrli edi, orzusi yo'lida hech nimadan qo'rqmas edi. Endi u tasviriy san'at sirlaridan ko'p narsani o'rganishi, mashq qilishi kerakligini his qilar, endigina rassomlik bilim yurtini tugatgan (hozirda O'zbekiston xalq rassomi) To'ra Quryazov oldiga borib, maslahat so'rar edi. O'sha yillarda Xorazmda malakali, yetuk rassomlar kam edi.

1965 yil ikkinchi bor yana Toshkentga keldi. Bu safar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining injener-pedagogika fakultetida yangi ochilgan badiiy grafika bo'limiga xujjat topshirdi. Ayni paytda, qabul imtihonlariga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Maktabda rasm o'qituvchisi bo'lmagani uchun o'z tayyorgarligidan qoniqmadi, toshkenlik rassom David Romanovich Mikulitskiyga shogirdlikka tushdi. Ustozi rahbarligida har kuni ertadan kechgacha chizishni mashq qildi, bilmaganlarini rasm solish sirlarini o'rgana boshladi. D. R. Mikulitskiy saboqlari, uning o'z kasbiga ixlosi, fidoiyligi Rustamni lol qoldirdi.

Har bir savoliga javobi, sidqidildan tushuntirishi, takrorlashdan charchamasligi...Uning hayot haqidagi dunyoqarashi, falsafiy talqini, ish tajribasi yosh rassom uchun qiziqarli edi, ulardan xulosa chiqarib, amal qilishga harakat qilardi.

Rustam kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, o'qishga kirishib ketdi. Endi uning hayotida kata burilish yuz berdi. Talabalik yillari har xil to'garaklar, uchrashuvlar, suhbatlarga imkon darajada qatnashishga intildi.

1966 yilda eng birinchi mustaqil yaratgan ishi natyurmort bo'ldi, unda safsargulining rasmi miniatyura san'atidagidek sharqona talqinda edi. Suratda gul yaproqlari mayin tasvirlangan, ma'sumgina, erta bahor gulini eslatardi.

Nizomiy nomidagi TDPIda birinchi kurs talabalik davrida o'qish qiziqarli edi. Ammo ortiqcha fanlar ko'proq bo'lganligidan, asosiy fanlarni o'rganishga xalaqit berardi.

Uning 1965-1967 yillari do'stlari bilan ijaradagi uyda yashagan davrlari, tinimsiz muloqotlaru tortishuvlar bir biridan darslaru taom pishirishlarni o'rganishlari sira yodidan chiqmaydi. Keyinchalik Nizomiy nomidagi TDPI yotoqxonasida uch yil yashadi, yangi do'stlar orttirdi. Ba'zilar bilan shu kungacha uning do'stona aloqalari davom etib kelmoqda. Talabalikdagi do'stlik, bu bir boshqacha munosabat, muloqot, u yuzma-yuz goh xotirada umr oxirigacha davom etadi. Nvoiy nomidagi Opera va balet teatriga tez-tez borib turardi, Karim Zokirov, Benyaminov, Vasilev, Saodat Qabulova, Galiya Izmailova kabi buyuk san'tkorlar ijodi bilan tanishishga musharraf bo'ldi. Muqimiy nomli musiqali drama teatri ham nazardan qolmasdi: Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Soyip Xo'jayev, Baxtiyor Ixtiyorov, Xusan Sharipov ijro etgan spektakllarni qiziqib, berilib tomosha qilardi, ularning mahoratiga qoyil qolar, ijod mahoratini, badiiyatni anglashga intilardi. Xamza nomidagi O'zbek Akademik drama teatri artistlaridan Olim Xujayev, Shukur Burxonov, Sora Eshonturayeva, Obid Yunusov, Qudrat Xujayev kabi ijodkorlar ijrosida ko'plab spektakllarni kuzatib borardi. Shu yillari Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyi munosabati bilan talabalar urtasida QVZ tashkil qilindi. Rassom O'sha yillarni eslab, shunday

deydi: «Men institut komandasida rassom sifatida qatnashdim. Dramatik chiquvlar uchun O'zbekiston xalq artisti Qudrat Xujayevdan sahna mahoratidan saboq oldik. 1968 yilda O'zbekiston televideniyesida to'g'ridan-to'g'ri efirda Farg'ona Pedagogika instituta komandasi bilan musobaqa o'ynab, g'olib chiqdik. Keyinchalik institut majlislar zalida talabalar va rektoratning iltimosi bilan QVZ dasturini ikki soatdan ortiq vaqt davomida namoyish etdik va kontsert berdik. Bu g'alabamiz O'rta Osiyo respublikalari bo'ylab shov-shuv bo'lishiga sabab bo'ldi va u matbuotda keng yoritildi, targ'ibot qilindi. Nazarimda, biz respublikamizda ilk bor QVZ tashkil qildik.

196-yili 26-aprelda bo'lgan zilzila hammamizni katta tashvishga qo'ydi. O'sha yillardaga davomli silkinishlar... shahar binolari vayronalari... Bularning bari insonlar qalbida o'zining o'chmas izlarini qoldirgan edi. Hamma talabalar qatori men ham aholiga yordam berishga safarbar qilindim. Xavfli joylardagi kishilarni boshqa xavfsiz joylarga ko'chirishga yordam berdik. Tezkorlik bilan imtixonlarni muddatidan oldin topshirib, yangi o'quv yiliga qadar Toshkent shahar qurilishiga otlidik. Keyingi yili o'qish oxirida Shoximardonda plener amaliyotiga bir oy davomida rasm chizish bilan mashg'ul bo'lib, tog'larning ajoyib manzarasidan ilhomlandik.»

Ustozlardan Yusuf Yelizarov, Malik Nabiyev, Nikolay Ten ularga rassomlik fanlaridan dars berishdi. Ayniqsa, Yu. Yelizarov saboqlari yaxshi esda qolardi, chunki uning rang sezish qobiliyati, dars berishi, tushuntirishi boshqacha edi. Bu rassomning institutda qilgan ko'rgazmasi, asarlaridagi rang uyg'unligi yosh rassomga katta ta'sir qilgan edi.

1970 yili, besh yillik tahsildan keyin diplom himoyasi uchun ishlangan "Lola sayli" nomli kartinasi yosh rassom imkoniyatlarini namoyish etdi. U yosh mutaxassis o'qituvchi sifatida Urganch qurilish texnikumiga yuborildi. Oradan ko'p o'tmay, 1971 yilda Armiya safida xizmatqildi, u yerda xizmatdaligida rasm chizadigan albomi har doim yonida bo'ldi, qalam yoki flamaster bilan o'ziga qiziqarli tuyulgan binolarni, manzaralar va chiroyli daraxtlarni, shahar manzaralarini chizib yurdi. Keyin, xizmatdan bo'shagandan so'ng, o'z qiziqishiga

ko'ra, Moskvadagi rassomlik o'quv yurtlari bilan yaqindan tanishdi, u yerda ham o'qishni orzu qildi. Shu bois o'z bilimiga qoniqmay, 1972 yili Xarkov shahridagi (Ukraina) rassomchilik badiiy sanoat institutiga(hozirgi Akademiya) bordi. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Kursida O'rta Osiyo va Kavkazorti respublikalari millatlari vakillaridan bitta o'zi edi, shu sabablimi, yurish-turishi, darsu davomati, chizishi hammaning diqqat-e'tiboriga tushdi. Shuning uchun ham boshqalardan kam bo'lmaslikka, yurtdoshlarini uyaltirmaslikka intilib "yaxshi" va "a'lo" baholar bilan o'qib, tirishib maqtovg'a sazovor bo'lar edi. 1976 yili oilaviy sharioti, moddiy qiyinchilik tufayli o'qishni uchinchi kursdan Toshkent teatr va rassomchilik institutida davom ettirdi, 1979 yili Mahobatli dekorativ bezak ixtisosligini tamomladi. U yerda O'zbekiston xalq rassomlari Chingiz Axmarov, O'zbekiston xalq rassomi Valentin Jmakin, Yuriy Chernishov, O'zbekiston xalq rassomi, akademik Nikolay Sergeyeovich Shin, O'zbekiston xalq rassomi, akademik Bahodir Jalolovlardan saboq oldi. U taqdir taqazosi bilan ana shunday taniqli uch oliy o'quv yurtida tehsil olib, ularning yutuqlari va metodikasi sirlarini anglashga musharraf bo'ldi.

Rassomning ilk ijodga qo'ygan birinchi qadami 1970 -yil Nizomiy nomidagi TDPI ni bitirishidagi diplom ishi edi. U yuqorida ta'kidlaganimizdek "Lola sayli" deb nomlangan edi. Buning sababi ayon: Rustam talabalik yillarida bahor keldi deguncha, kursdoshlari bilan toqqa, lola sayliga chiqib turardi. Xorazmda tog'lar yo'q, shu bois ularga hayrati cheksiz edi. Baland qorli tog'lar , etagidagi adirlar, qip-qizil ochilgan lolalar...Bularning bari unga ertaklardagidek tasavvur uyg'otar edi. . Uning yosh qalbi lola saylidagi yoshlarning beozor sho'xliklari, kulgili holatlar, ajoyib manzaralar, tog' bag'ridagi rang jilvalaridan olingan taasurotlar bilan to'lib-toshgan edi. Bir necha marta toqqa chiqib, manzaralardan etyudlar ishladi. Lekin kompozitsiya tuzilishi uni qoniqtirmasdi. O'qituvchilari maslahati bilan ishlab ko'rdi. Baribir, bu ishdan qoniqmadi. Shundan so'ng bahor ranglari matoga oson ko'chmasligini angladi. Uni bir umir chizishga bel bog'ladi. Rassomning shu kungacha bahor manzarasini ishlab kelishi ham bejiz emas. Ammo o'sha payitlarda olgan tassurotlari, ko'rganlari, kechirgan xis-tuyg'ulari

keyingi ishlarida xamisha bir ulgusi bilan ko'rinib turadi. Bu mavzuni qayta-qayta shu mavzuda ishlagisi kelaveradi. Bu mavzuda u yoshlikning begubor olamini, sevinchlari, muhabbati, hayotga bo'lgan jo'shqin intilishlarini ko'radi. O'sha yillari uning yon daftarida ayrim ulug' rassomlar so'zi qayd qilingan edi. «Nazariyasiz amaliyotga kirib borgan kishi, — deb yozgandi Leonardo da Vinchi, — kompassiz yo'lga chiqqan dengizchiga o'xshaydi va qayoqqa ketayotganligini uzi ham tuzukroq anglab yetmaydi. Amaliyot hamisha yaxshi ishlab chiqilgan nazariyaga tayanishi lozim va nazariyasiz rangtasvirning muvaffaqiyatini hech qachon ta'minlab bo'lmaydi»

Rang tasvirchi rassom D. N. Kardovskiy quyidagilarni yozgan edi. "... San'atni o'rganayotganlar ifoda usullari va qoidalariga bo'ysunishlari, shakl, rang, tus, xususiyat, harakat, mutanosibligini bera olishi, ularning qonuniyatlarini bilishi lozim".

1978 yil Toshkent teatr va rassomlik institutining oxirgi kurslarida "Rassom ustaxonasida" kartinasini yaratish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Rassom ustaxonasi ko'rinishining eskizini ishlab ko'rdi. Rassom sifatida o'zining portretini yaratmoqchi bo'ldi. G'oyada yosh rassomning uzoq-uzoqlarga tikilib, hayol og'ushida, ijod ishtiyoqidagi holati bo'lishi kerak edi. Kompozitsiyada ustaxona, rasom qo'lida mo'yqalam(qilcho'p) ushlagan qomati yonlama turgani bo'lishi kerak edi. Ammo o'zining qiyofasi va yuzini yon tomondan ishlash nihoyatda qiyinchilik tug'dirdi. Bu yechimni hal qilish uchun uch qirrali ko'zgudan (tryumo) foydalanishga to'g'ri keldi.

Shuning uchun ham ishlash jarayoni bir necha yilga chuzilib ketdi. Bu portret-kartina janrida, ishlanishi neoklassitsizm usulida bajarishni niyat qilib ish boshladi. Asar institutni tugatishi arafasida — 1982 yili tayyor bo'ldi. O'sha yillari respublikada birinchi bor portret ko'rgazmasi tashkil qilindi. Portreti badiiy kengashdan muvaffaqiyatli o'tib, ko'rgazmaga ko'yildi. Ayni paytda asar O'zbekiston madaniyat fondi uchun sotib olindi. Bu uning uchun katta omad, yangi asarlar yaratishiga imkon berdi. Rustamning asosiy mutaxassisligi

monumentalchi rassom bo'lib, rangtasvirchi rassomlar bilan bellashishi oson ish emas edi.

«Qish» deb nomlangan manzara asari ham ilk ijodiy ishlaridan biridir. Bu asar qish haqidagina emas, balki odamlarning turmush tarziga ham bag'ishlangan.

Yosh rassom har safar biron asar yaratishga kirishganida o'z oldiga yangi maqsadlar, rejalar, sinovlar qo'yib ish boshlashni odat tusiga aylantirdi. «Men nimaga qodirman, nima ish qo'limdan kelarkan? Belgilangan mavzuni ishlashning uddasidan chiqa olamanmi?» degan savollarga izlanishlar bilan javob qilar edi. Bu talabchanlik bugungi kunda ham odat bo'lib olgan.

Kombinatda endi ish boshlagan yosh ijodkor tajribali ustozlar huzuriga ko'proq oshiqar, uni devoriy bezaklarning amaliyotdagi ijrosi, undagi siru sinoatlar qiziqtirardi. Rassomlar Chingiz Axmarov, Arnold Gan bilan uchrashuvlari qiziqarli u gar, ularning suhbatlari samimiy, ochiq bo'lardi, unga do'stona maslaxatlar berishardi.

Chingiz Axmarov uning xorazmlilik ekanini bilgach «Yurting katta tarixga ega, sen u haqida asarlar yaratsang ulug' ish bo'lar edi», deb bir necha mavzularni tavsiya etdi. Maxobatli devoriy rangtasvir ustasi, Sharqni teran biluvchi ustoz har uchrashuvlarida Rustamdan nimalar qilayotganini so'rab turar edi. Shu bois o'sha yillarda rassom nechta manzara, portret, kartina yaratgan bo'lsa, uni sababchisi Chingiz Axmarov deb bildi. Bu asarlar nima haqida edi? Avvalambor u yoshligidan mehnatda pishgan, ayni paytda va sayyorlikni yaxshi ko'rgani ko'p hayotiy voqealarning guvohi bo'lgani bois, ular haqida rasm orqali hikoya qilishni orzu qilardi. Uyg'onish davri va rus rassomlaridan Vrubel, Kramskoy, Repin, Ayvazovskiy, Bryullov, Savrasov, Levitan, Kuinji kabi realist rassomlar asarlarini har gal tomosha qilganida, beixtiyor o'zi ko'rgan voqealarni eslar, huddi ular kabi o'z taassurotlarini asar qilib yaratishni orzu qilardi. Ustozi ham bu fikrni qo'llab quvvatladi. Ilk ijodini shular ta'sirida yarata boshladi. Uning bu yo'ldagi uslubi realistik tarzda, an'anaga yaqin bo'lib shakllandi, Borliqni, vokelikni o'z haqqoniy kuzatishlaridan kelib chiqib tasvirlashga intildi, rang holatini o'ziga xos ifodalash

uslubini izladi. Bularning bari u yaratgan turli xil janrdagi izlanishlarida baralla ko'rinib turadi.

Rustam ijodida bevosita hayotdan (ya'ni, naturadan) yoki taassurotlar, yoki hayoldan tug'ilgan asarlar namunalari ko'plab uchraydi. Albatta, ular orasida o'ziga xos talablar va farqlar sezilishi tabiiy. Masalan, «Tong. Suvchilar gurungi» (m.m. 160x150. 1982-85yy. Ogaxiy muzeyi. Xiva sh.)ni olaylik.

Bu hayotiy taassurotlar asosida yaratilgan kartina. U uch figurali bo'lib, qishloq dehqonlari hayotiga bag'ishlangan. Asar avtobiografik, rassom o'zining dalada suvchilik qilgan paytlarini xotirlab yaratgan. Uchta suvchi erta bahorda shudgor yuvish jarayonida suhbatlashib turgan holatda, keksa dehqon yoshlarga yer, suv haqida o'z tajribasini, bilimini so'zlab berayotgani tasvirlangan. Shudgor yuvish Xorazmda o'ta muhim vazifa, u yerdan yaxshi hosil olish uchun zamin yaratadi. Bu jarayon kechayu kunduz davom etishi bilan boshqa viloyatlardan farqlanadi. Uch qiyofa kompozitsion tuzilishi uziga xos piramidani tashkil qiladi. Unda kuch birlikda degan ramziy ma'no singdirilgan.

Ayollar obrazi rassomni ko'pdan qiziqtirib keladi. U Sharq ayollaridagi go'zallikni, qalbi tozaligi, ochiqligi, sevgilisiga sodiqligi, nafisligi va qalbining takrorlanmas, botiniy tovlanishlariga alohida e'tibor qiladi. «Hamshira» (1990) portreti naturadan ishlangan. Unda tasvirlangan ayol suratda bor ko'rku chiroyi, bor malohati, bor jozibasi bilan to'la namoyon bo'lgan. Bunday tamoyilga asoslangan, birmuncha avvalroq chizilgan «Talaba qiz», «Birinchi qor», «Melisa qiz», «Xayol», «Sukunatni tinglab» (1987) portretlarida ham huddi shunday shoirona ruh, ayol go'zalligidan zavqlanish — bokiralik, suluvlik, ayollarga xos ichki va tashki joziba olamini ko'rsatishga harakat qilinadi. «Hamshira» oramizda, turmushimizda uchraydigan mehr, shafqatpesha ayollarga atalgan o'ziga xos qasidadir.

«Maktub» deb nomlangan portret - kartina yoshlar mavzusiga bag'ishlangan. Hayoliy taassurot asosida ishlangan bu asarda birinchi muhabbat, qizlarimizning latofati, ibosi, uyatchanligi oddiy qishloq qizi timsolida ochib berilgan. Kech qorong'uda ayvonda o'tirgan qiz, uning qo'lida birinchi bor sevgi izhor qilgan



yigitning xati. Hayolchan, o'ygga to'lgan bu qiz o'z o'yilariga, orzulariga cho'milganligini chehrasidan anglab olamiz. O'zbekona holat, voyaga yetgan bu qizning kechinmalari ziddiy (kontrast) ranglarda ko'rsatilgan. Tomoshabin asar orqali yoshlarning ilk muhabbati, uning taqdiri, kelgusi haqida o'ylash bilan bir qatorda o'z yoshligini eslashiga zamin yaratiladi. Vermer Delftinskiyning «Maktub» degan asari bor. Bu asarni Chingiz Axmarov «Nafosat yo'llarida» kitobida zavq bilan eslaydi. Rustanning bu ishida ana shu mumtoz asarga hamohanglik sezilsada, kompozitsiya yechimi va ranglarning tanlanishi, timsol xolatlarida tubdan farq bor.

Rassom ijodida tasviriy san'atning barcha janriga xos asarlar uchrasada, natyurmort, bitta-ikkita. U ham bo'lsa «Natyurmort» (2008 y.) deb atalgan bo'lib, kuzdagi pishiqchilik mevalari aks ettirilgan. Qolganlari gullar «lolaqizg'aldoq» va «nastarin» haqida hikoya qiluvchi tasvirlar. «Lolaqizg'aldoq» (1993 y.), «Safsar» (1996 y.), «Sariq guldasta» (1999 y.), «Nastarin» (2000 y.) natyurmortlarida rassom gullar go'zalligining nozik mavjlarini ko'rsatishga intildi.

Rassom ijodida manzara muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tabiatda yil fasllarining o'ziga xos o'zgarishlariga bag'ishlangan manzaralari diqqatga sazovor. O'zbek diyori rang-barang go'zal manzaralarga juda boy, bog'-rog'lari, dala dashtlariyu serviqor tog'lari, olis-yaqin qishloqlari uziga xos ranglar makoni. Rassom mamlakatimiz bo'ylab ko'p ijodiy safarlarga chiqadi, bo'lajak asar uchun ashyoviy dalillarni qoralamalarda, etyudlarda aks ettiradi. Viloyatlar sari yo'l olar ekan, ularda har gal o'zgacha, bir biriga o'xshamas go'zallikka ega olamni ko'rib qaytadi. U manzaralarni qalbdan xis etar ekan, tasvirlashga loyiq lavhalarni ishtiyoq bilan saralaydi.

Har qanday manzarani ham chizish mumkin, ammo uning kalitini topa olish lozim. U bolaligidan qoniga singib ketgan bahor manzaralarini yangi ishlagan asarida bir chimdim qo'shib ketadi. Chunki bahor manzaralari yoshlikning otashin harorati bilan sug'orilgan. Daraxtlarning gullashi, bahor chechaklarining anvoyi hidlari quvonch xissini uyg'otadi, ijodkorga shoirona ruh bag'ishlaydi. Bahor har doim insonlarni yangilikka, yangi turmush tarziga, yangi niyatlarga chorlab kelgan.

Ayniqsa, yoshlarni sevgi-muhabbatga chorlovchi sokin manzaralar hech kimni befarq qoldirmaydi.

Rassomning bolaligi Amudaryo bo'ylarida o'tgan, qishning qattiq sovuq kunlarida qirov bosgan daraxtlar va ko'katlar, oppoq billur kabi manzara umrbod esida qolgan. Zamharir qish kunlari, hammayoq qirovu qordan solingan naqshlar. Ana shu ertakona manzaralar rassom xotirasiga bir umr o'rnashib qoldi. Shundanmi, u qayerda qish manzarasini ko'rganida, daraxtlar kelin libosini kiyganday bo'lib tuyuladi. Bu go'zallikni har qishda tasvir etishga intiladi. Shu bois uning ijodida qish manzaralari ko'proq.

«Besh-olti yoshligimda aravada qo'shni qishloqqa ketayotib ko'rgan qish manzaralarim kechagidek esimda. Qish haqida asar yaratishga kirishar ekanman, shu ko'rganlarim ko'z oldimda gav-dalanadi, ilxomlantiradi, ishlashimga madad beradi», — deb xotirlaydi rassom.

Rassomning «Qish» (1981 y.) deb nomlangan, Toshkentning Eski shaxriga bag'ishlangan manzara asari uning ijodidagi bag'ishlangan jiddiy asar xisoblanadi. «Qish» manzara kartinasida eski shaharning paxsa devorli uylari, kishning qorli kunlardan biri tasvirlangan. Sovuq kunga qaramay, eshak, aravada tandir ortgan aravakash yo'lda ketmoqda. Bu ramziy lavha har qanday sharoitda ham hayot tashvishi mavjudligini, insonlar bardoshini ko'rsatadi. Unga insonning yangi niyatlari, uylari, rejalari har qanday sharoitda ham davom etadi, hayot xech qachon so'nmaydi, degan bir aqida singdirilgan. Shu kichkina asar orqali muallif O'zbekiston kishining, odamlarining o'ziga xosligini ko'rsata olgan. Tandır — bu rizqu ro'z ramzi. Bunday olganda muhim hech nima yo'qday, ammo katta hissiyot ohimi tasvir zamirida ohib turadi. Asar Toshkent, Moskva, Yugoslaviya, Suriya, Koreya mamlakatlarining nufuzli ko'rgazmalarida namoyish etildi, katta obro' qozondi. Asarning tuzilishi haqida rassomning o'zi shunday hikoya qiladi: «1979 yilning oxirlarida Respublika o'quvchilar saroyini bezashda rassom Yuriy Chernishov bilan ishlardim. Har doim trolleybusdan O'zbek milliy teatri oldida tushib, Qoratosh mahallasining qor bosgan ko'chalaridan piyoda, eski uylarni tomosha qilgancha ish joyimga borar edim. Atrofni oylab kuzatishim natijasida

biron manzara yaratish fikri uyg'ondi. Qishning izg'irin sovug'ida ko'chada rasm chizish qiyin, shu bois har kuni kuzatgan narsalarimni qog'ozga tushira boshladim. Ana shu asosda uncha katta bo'lmagan xajmdagi eskizni asta-sekin uyda ishlay boshladim. Naturadan ishlamagan bo'lsamda, tayyor bo'lgan asar hammaga ma'qul bo'ldi, badiiy kengash tomonidan ko'rgazmaga qabul qilindi. 1982 yil Sankt-Peterburgda tashkil qilingan Yoshlar Ittifoq ko'rgazmasida namoyish etildi. Keyinchalik, makedoniyadagi ko'rgazmaga yuborildi. U shundan beri juda ko'p Xalkaro ko'rgazmalarda qo'yilmoqda. Rassom shu asari orqali katta va xalqaro ko'rgazmalar ishtirokchisiga aylandi. U o'sha yili O'zbekiston Madaniyat vazirligining Badiiy kurgazmalar direktsiyasi tomonidan sotib olindi. Bu asar unga moddiy yordamdan ham ko'ra, ma'naviy va ruhiy kuch bag'ishladi, ilhomlantirdi, ko'pchilikka tanishtirdi, bu uning ilk ijodiy boyligi bo'ldi. Keyinchalik shu tufayli unga bir necha buyurtmalar berilib, yanada yangi asarlar yaratish imkoni mavjud bo'ldi. Shu mavzudagi «Qish» (1981 y.), «Bolaligimiz ko'chalari» (1985 y.), «Birinchi qor» (1987 y.), «Deraza ortida» (1998 y.), «Shahar chekkasida» (1990 y.), «Qorli kun» (2003 y.), «Qish manzarasi» (2004 y.), «Qorli kuz» (2008 y.) kabi manzara asarlari shundan guvoxlik beradi. «O'zbekistonda qish» turkum manzaralari rassomning bu fayeldagi ajib tovlanishlarni teran his qila olishini ko'rsatdi. Ma'lumki, O'zbekistonda kor uzoq turmaydi. Ammo qishning yurtimizga xos ayozli kunlari, mayin qor qoplamlari, daraxtlarning qirovli, sovuqqa bardosh berishi, chidamliligi, tabiatning qorda po'stin yopingandek, ba`zida kelin libosi kiygandek manzaralari, oppoq, yumshoq qor jilvalari rassom asarlarida nozik ifodasini topa oldi. Bu polotnolar o'zlarining betakror jozibasi bilan kishini maftun etadi.

## **2.2. Rassomning turli janrlarda yaratgan asarlari haqida**

Rassomning yaxshi ko'rgan fasllaridan biri - kuz. Bu davr ranglarga boyligi bilan keskin farqdanadi. Aytaylik, qip-qizil o'rik daraxti barglari, tilladek ko'zni qamashtiruvchi sariq rangga burkangan teraklar... Bunday o'tkir ranglar rassom polotnolariga bamisoli sharsharadek oqib kiradi. Yillar davomida yaratilgan «Surxondaryo motivi» (1991 y.), «Dala» (1988 y.), «Kuyoshli kun (So'qoq)»

(1993 y.), «Kuzga yaqin» (1995 y.), «Amudaryo» (1997) y., «Tog'da kuz» 2000y., asarlari shu fikrni tasdiqlab turibdi. Rassom manzaralar orqali yurtiga muhabbatini, sodiqligini izhor etadi. Manzara — rassomning yurtiga baralla aytayotgan qo'shig'i desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiat manzarasi — deyarli hamma rassomlar ijodida ko'p uchraydigan holat. Manzaralarni ishlash jarayoni aslida rassom uchun yangi ranglar majmuasini ixtiro qilish usuli, huddi ana shu xususiyat uni yangi-yangi ijodiy asarlar yaratishga undaydi.

Rustam ko'p yurtlarni kezib, muntazam kuzatib yurganligidan, tabiatning eng nozik tovlanishlari va o'zgarishlarini teran ilg'aydi. Tabiat kuchog'ida u o'zini erkin sezadi. Shu sabab, shahar tashqarisiga tez-tez chiqib turadi. Shaharda yashash uchun qulayliklar yaxshi bo'lsa-da, gavjum, sershovqin hayot, odamlarning turlicha munosabatlari uning tabiatiga singmaydi.

Ko'pincha, qishloq, odamlarining sodda gurunlarini sog'inadi. Biz odatda o'zimiz ko'rgan, bilgan xamda ko'nikkan manzaralar va odamlar, ranglar tasvirlarini izlashga shoshilamiz. Bu tabiiy. Chunki bir zum bo'lsa-da, dilga yaqin, yoqimli xotiralarga, taassurotlarga qaytgimiz keladi. Ranglarning nozik evrilishlaridan xosil bo'lgan bunday asarlar Rustam ijodida bir talay ekanligi kishini quvontiradi. Xususan, Surxonning ko'z ilg'amas, cheksiz adirlarida onda-sonda uchrab turadigan siyrak daraxtlar, ularning zarrin shakllari, sarg'ish-qizg'imgir dashtning yashilga burkangan mayin ranglari dilda mudrab yotgan xislarni tulqinlantirsa, ne ajab. Kechagina, bolaligingizda yiroq-yiroqdarga tikilib, mana shu adirliklar osha ne-ne orzular bilan qaygadir, nimagadir oshiqib yashagan paytlaringiz yodga tushadi.

U tabiat manzaralarini chizishda an'anaviy yo'llardan borsa ham, ammo ulardagi xis-hayajon, tuyg'ular, ranglar jilosi faqat Rustamga xos deyish mumkin. To'g'ri, ba'zi o'rinlarda, jumladan, ranglar tanlashda Kashina, Kovalevskaya asarlari ta'siri sezilib qoladi. Ammo bu ijodiy o'zlashtirish rassomning tabiat go'zalliklarini o'ziga xos ko'ra olishiga monelik qilmaydi. «Xumsonda bahor», «Kuz», «Shahar chekkasi» kabi qator ishlarida tabiatning nozik jilvalari mayin yorug'likda, sokin

ranglarda evriladi. Rassom uchun tabiatning asl nusxasi emas, undagi bo'yoqlarning holati, nurlanishi, o'zaro munosabatlaridagi uygunlik tasvirlanishi muhim. Qadimgi shahar xarobalarida yil fasllarining qay xolatda kelishini tasvirlash rassom uchun asosiy maqsad emas, ular orasidagi abadiyat lahzalarini anglash, tarixning teran dunyosiga munosabat bildirish asarning mohiyatini tashkil etadi.

Rassom buyuk Amudaryo qirg'oqlarida qishloq bolalari bilan o'ynar ekan Rustam Xudayberganov ona Yer tuprog'i rangi timsolini topdi. Jazirama yozning quyoshli issig'ida «Gujum» soyasi salqini, bir qultum suv qadr-qimmatini angladi. Bu «Gujum» daraxt hayot ramzi, dovyurak va sahiy, rassomlar va shoirlar kuylaganidek, cheksiz ko'm-ko'k osmon, oppoq bulutlar ham o'zgacha ramziy idrok qilinadi.

Keyingi yillarda Chorvoq atrofidagi qishloqlar — So'qoq, Kumushkon, Xumson, G'azalkent atrofi, Parkent atrofi rassomning asosiy ijod makoniga aylandi. Ana shu joylarning bahor, kuz va qish manzarasi va ko'rinishlari aks ettirilgan asarlari paydo bo'ldi. Manzara ishlashda u ko'proq tabiatning go'zalligini romantik tarzda ifodalashga, tomoshabini go'zallik yo'lqinlari bilan ruhlantirishga harakat qiladi. Xususan, «Tog' etagida» (2009 y.), «Kuzgi sokinlik» (2009 y.), «Sohildagi qishloq» (2009 y.), «Tog'dagi so'qmoq» (2008 y.), «Qishloqda bahor» (2010 y.), «Tog'da bahor» (2010 y.) kabi asarlarda ana shu tamoyilni ko'rish mumkin. Rustam rangshunoslik bilan shug'ullangani uchun unga ko'p ranglar juda yoqadi. Ayniqsa, yashil, ko'k, binafsha, nafis sariq ranglar turkumini yaxshi ko'radi. Uning uchun bahor va kuz ijod qilishga chorlovchi davr xisoblanadi. Bahor esa rassomning yoshligini eslatib, qalbini to'lqinlantiradigan fasl. Qish fasli negadir unga bolalik davrini eslatadi. Xorazmning izg'irin sovug'i, qirov bosgan daraxtlar, ertaksimon manzaralar hamon xotirasida.

«Bog'da bahor» (m.m. 50x60 2001 y.) Xumsonda etyud chizib yurganida, bog' chekkasida gullagan bir oppoq gilos rassomni maftun etdi. Uning gulsiz, yaproqsiz daraxtlar orasida turishi oq kiygan kelinni eslatardi. Shu ta'sirlanish asosida bahorga bag'ishlangan manzara paydo bo'ldi.

«Afrosiyobda bahor» (m.m. 100x100, 1996 y.) Bu manzara kartina mustaqqillik kuniga bag'ishlangan. Unda qadimiy shahar Afrosiyoda bahor tasvirlangan. Bu yurtimizda yangilanish, tug'ilish kabi ramziylikni ifoda etadi. Ko'hna tepalik, uzoqda Shoxizinda ko'rinib turibdi, bir tomonda yashil o't-o'lanlaru qizil lolalarga burkangan dala aks ettirilgan.

«Jonajon qishloq» (m.m. 70x80, 2000 y.) Toshkent shahrining chekka qishlogi, dalalarning kuzgi xolati tasvirlangan. Kuzdagi ranglar majmuasi rassomni qiziqtirgan. Unda oddiy qishloq. va xosili yig'ilgan dala tasvirlanib, kuz harorati, sokinlik, daraxtlarning rang jilolari tovlanishi aks ettirilgan.

«Qorli kun» m.m.82x98. 2003y. Anhor bo'ylarining qorga burkangan qish manzarasi tasvirlangan. Qorga burkangan daraxtzor, ularning billurdek tovlanib, ertakona tusga kirishi haqida hikoya qilingan. Bu asar maktab o'quvchilari uchun 3-sinf «Tasviriy san`at» darsligiga namuna sifatida kiritilgan.

Rassom o'z asarlari orqali, sizni go'zal tabiat manzaralariga chorlaydi. Yoshlik qa lbini hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartira oladi. Shoirona kuylash bilan boshkalardan o'zgacha ajralib turadi. Ranglarda va kompozitsiyada tabiiylik va soddalik ustun. Rassomning rangshunoslik bilan keng shug'ullanishi ijodiga katta yordam beradi, albatta. Yurtimiz go'zal, sharqona manzaralarga boy. Bu sayohatni yaxshi ko'rgan rassomga yangi mukammal asarlar yaratishga undaydi, qaysi fasl bo'lmasin, ijodkorga ilhom bag'ishlaydi.

Rustam Xudayberganov uchun milliy qadriyatlar bugungi kunda yana ham qayta tiklanayotganligi uchungina emas, balki u bunga bolalikdan buyon aziz va qadrdon. Xiva yaqinida tug'ilib o'sgan rassomning bunday bebaho xazinalarni erta anglab yetishi tabiiy, albatta. Bobolardan meros bo'lgan bu qadimiy shahar obidalari, uning xotira yanglig' manzaralari rassom uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'ldi. Rustam qayerda yashamasin –Xarkovdami, Surxondaryodami yoki Toshkentdami, bu xotiralar silsilasi uni tark etmadi. Aksincha, ma`lum bir vaqt o'tishi bilan huddi olmos qirralari singari yangicha jilolarda tovlanib, uni o'ziga chorladi. Uning «Xiva» turkum asarlari ana shu tariqa dunyoga keldi. Rustam qadimgi me`moriy obidalar bilan bog'liq shaxarlar manzaralarini ishlar ekan,

ranglarining yaxlit va toza tovlanishlariga intildi. Bu, hususan, rassomning «Buxoro. Chorminor» (1993), «Afrosiyobda baxor» (1997) kabi asarlarida ko'zga tashlanadi. Bu usulni ramziy ma'no kasb etishiga xizmat qildirish desak, to'g'riroq bo'ladi. Chunki, rassom maqsadi ajdodlarning tom ma'nodagi yaxlit qalb dunyosi, butun san'ati, toza ruhiyatiga rangtasvir orqali o'z shukronasini ifoda etish edi.

Rassom Xiva, ko'hna Urganch, Buxoro yodgorliklarini, me'moriy obidalarini chizar ekan, ularni tushga aylanib borayotgan yorqin xotiralar sifatida ko'radi. Buning ramzi sifatida ulardagi ranglarni yaxlitlashtirib, soyalarni quyuqlashtiradi, samoviy bir tus beradi. Bu izlanishlar orasida «Xiva darvozasi», «Xorazmshoxlar maqbarasi», «Xivada yoz kechasi», «Kalta Minor manzarasi», «Eski shahar ko'chasi» kabi asarlari diqqatga sazovor. Bu turkum asarlarda garchi Sikeyros, Rivera singari Lotin Amerikasining monumentalchi rassomlarinint hamda rus rassomi Nikolay Rerix, Saryan ijodlariga hamohanglik sezilsada, ularning milliy zaminida ajdodlarimiz ruhiga sadoqat, mehru-muhabbat tuyg'ulari ufurib turibdi. Ko'hna binolardagi sarg'ish devorlar bunyodkorlik, xotira, tabiat xodisalari va shakllari o'rtasidagi jarayonni ifoda etadi.

Mana shunday tasvirlarda rassomning o'z uslubi, o'zgacha qarashi paydo bo'ldi. Ma'lumki, uslub - bu ifodali aks ettirish vositasi, muallifning individual temperamentini saralash va tashkil qilish bilan bog'liqdir. Rassom kartinasidagi har qanday detal bizga sharqona rangda ko'ringan haqiqiy manzarani anglashga, falsafiy ma'no chiqarishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa «Xiva chekkasida» (1998), «Ichon qala devorlari» (1995), «Jonajon ko'cha» (1997). »Kalta minor» (1994), «Choshgoh. Xiva» (1996) ko'hna shaxarlar ko'rinishini tasvirlashda aloxida seziladi.

Arxitektura manzaralarini yaratishda rassom kechirilgan tarixiy voqealarini eslab, ularni badiiy obrazlarda ochib berishga xarakat qiladi. Albatta, bu binolar ko'p voqealarning guvohi, uni yaratgan ustalar mahorati va bilimi bugungacha yetib kelgani kelgusi avlod uchun katta xazina. Manzaralar rangi yorqin va qoramtirliigi tarang holat hosil qiladi. Bunday jilva tomoshabin xotirasida uzoq saqlanib, tarixni eslashga undaydi. Bu turkum — rassomning ko'p yillik izlanishi

natijasi. Ranglarning rango-rang uyinlari tufayli mahobatli binolar yechimi alohida diqqatni tortadi. «Xiva» (1993 y.), «Chor minor, Buxoro» (1993 y.), «Ichon qala» (1993 y.), «Oydin kecha. Xiva» (1993 y.), «Devorlar. Xiva» (1994 y.), «Kalta - minor» 1994y, «Somoniylar maqbarasi» 1995y, «Eski Buxoro» 1996y, «Eski Shoxizinda» 1996y, «Xiva minoralari» 1999y, «Xiva darvozasi» 2003 y. kabi asarlari yaxlit, yirik detallar orqali mozaik tarzda badiiy timsollarni shakllantiradi. Ayni paytda yurtimiz ko'rkli va bunyodkorligi haqida ramziy ma'noga ega bo'lib jaranglaydi. Bu turkum asarlarning yuzga yaqini dunyoning yigirmadan ortiq mamlakatlarning rasmiy idoralari, xususiyl to'planmalarda saqlanmoqda.

Rassom ijodida qadimiy obidalar manzaralari shunchaki fahr sifatidagina emas, balki, ularni anglashga urinish tamoyillariga ham asoslangan. Buni Xiva, Buxoro, Samarqand shaxarlarining ko'rinishlari ishlovida rassomning yangi uslub bilan yondashishida ko'rishimiz mumkin. Arxitektura manzaralarida sirli, o'tmishga boy va ayni paytda navqiron, salobatli imoratlarni, ko'cha va minoralarni dramatik ranglar holatida aks ettiriladi. Buyoklar tiniq, ammo keskin, kechki quyosh nurida qizargan devorlar ko'rinishi bizni boshqa olamga olib kiradi. Bu turkum asarlar yechimi, koloriti bir-birini takrorlash yo'lidan bormaydi, aksincha zanjir sifatida bir-birini to'ldirib boradigan shaklu shamoyillar bir xillikdan holi manzara kasb etadi.

Tarixiy arxitektura mavzusidagi («Polvon darvoza», «Somoniylar maqbarasi») asarlari muallif ta'kidicha, Yevropa neoklasstsizmi va Sharq miniatyura tajribasini o'rgangan holda yaratilgan.

U osmon rangini, yer mavjlarini, hayot hodisotlarini yaxshi biladi. Unga mavhum shakllarni, abstrakt ko'rinishlarni o'ylab topish shart emas. Aytaylik, Xivaning qadimiy saroy binolari ustida jazirama faslda ko'm-ko'k osmon, unda bir parcha oppoq bulut tabiiylik bilan bir qatorda ramziylik ahamiyat kasb etadi. Go'yo u yong'ir bo'lib yog'ishi yoki oq kiyimdagi Xizir buvaga aylanishi mumkin. Germaniya jurnalistlari va san'atshunoslari: «Xiva, Buxoro arxitektura yodgorliklari, manzaralar, o'lkaning ajoyib go'zalligi tasvirlangan kartinalar, bizni



issiq o'lkaga olib kiradi, yorqin taassurot qoldirib, «Ming bir kecha» ertaklarini yodga soladi» Rassom ertaksimon manzaralarning chinakam ustasi deb yozgandi sifatida ko'zga tashlanadi. Uning «Yoz kuni», «Xiva» manzarasida jazirama issiq kunda ertaksimon holat hosil qilingan. Yorug'lik va soya ziddiyati, sirli obidalar, old o'rindagi shakllar va ikkinchi o'lchovdagi tasvir yumshoqligi manzarada o'zgaruvchanlik harakatini ta'minlaydi. Bunday talqin asarni ruhlantiruvchi manzara sifatida namoyon qiladi. «Xiva» va «Chorminor» Buxoro kabi bunday asarlari Amir Temurning

660 yilligiga bag'ishlagan Parijdagi YUNESKOning shtab qarorgohida namoyish qilindi.

Rassomning «Somoniyalar maqbarasi», «Oqshom. Chorminor», «Ichanqal'a darvozasi», «Xiva eski ko'chalari», «Oqshom kirmoqda» asarlari shunchaki tassurotlar natijasi emas, balki muallifning chuqur falsafiy o'ylarini hikoya qiluvchi dostonlardir. Yozning quyoshli issiq kunlari. Tasvirda odamlarsiz manzara. Ko'rinish to'g'ri chizgilar bilan ifodalangan. Manzara toza yaxlit ranglar bilan mujassamlashgan: go'zal obidalar, rang va yorug'lik o'yinlari... Rassom haqiqiy va hayoliy manzarani uyg'un tarzda tasvirlay olgan.

Toshkentga bag'ishlangan «Tungi Toshkent», «Eski Shahar manzaralari» (1994) turkum asarlari rassomning teran izlanishlari davomidir. Ularda poytaxt qadriyatlari alohida bir joziba, zavqu shavq bilan matoga muhrlangan. Eski shaharning o'ziga xos me'morchilik namunalari, tor qayrilma ko'chalar va gulzorlar tizmasi, nurlar sochilishi, ranglar o'yini tomoshabin qalbiga yorug'lik soladi. Umuman olganda, rassomning O'zbekistonga bag'ishlangan manzaralarida ona yurtga katta muhabbat nafasi ufurib turadi. Ularda nafaqat yurtimizning o'ziga xos tabiati, uning go'zalligi, ruhiy kuchi, xalq erkinligi va kayfiyati, balki bunyodkorlik, yaratuvchanlik tasvirlari ham mohirona ishlanib, o'z ifodasini topgan.

Portret janri murakkab, ko'p kuch va bilim talab qilishi bois har qanday rassom ham bunga jur'at qilavermaydi. Portretda inson tasviri qahramon bilan o'xshash bo'lishi, ayni paytda, badiiylik kasb etishi eng murakkab jarayondir. Rassom o'z

asarlarida bu asosiy qoidani unutmagan holda, vazifani qalbdan his qilib, qahramon olamini ochib berishga harakat qiladi. Rassom shu yo'lda ijod qilar ekan, uzoq izlanishlar natijasida maqsadga intilib bordi: u inson portretida rangorang qiyofalarni ko'rdi, ularni o'z qoramalarda, mato va boshqa materiallarda tasvirladi, katta-kichik, yoshu qari, bolalar va xotin-qizlarning yuz tuzilishini, xilma-xil holatlarini kuzatdi, timsolaridagi muhim urg'ularni berishga intildi. Har bir odamning ichki qalbi boshqasiga o'xshamas dunyodir. Yaratilgan portret tarix saxifalaridan o'rin olib, kelgusi avlodga taqdim etiladi. Yoshlar ota bobolari haqida, ularning kimligini, qandayligani bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inson o'z tarixini esdan chikarmaslikka intilishi tabiiy. Rassom ana shu yo'lda uning komillik yo'lidagi intilishlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham zamondoshlar portretlarini yaratish rassomning asosiy vazifalaridan biri bo'lib keldi.

Ijodkor har doim jiddiy, u qaysi janrda ishlamasin, voqea, hodisaga baho berishda san'at nuqtaiy nazaridan qaraydi. Uning portretlarida dabdaba yuk, rang, tuye mayda detallarigacha puxta uilaganligi, insonga bo'lgan cheksiz qiziqishi tufayli tomoshabinni maftun etadi. Misol uchun Hamid Olimjon portretida biz tabiatan jo'shqin, ammo ichki hotirjamlik bilan boqqan, o'tkir nigohli shoirni ko'ramiz. «Sokinlikni tinglab» portretida esa hayol surib o'tirgan yosh ayol qalbining ichki olamini his qilamiz. Qahramon tomoshabinga iliq tikilib, o'rindiqqqa suyanib o'tirgancha, sokinlikka quloq solib o'ylayapti. Nafis gullaridagi zargarlik bezaklari, oynadan ko'ringan mayin aks etgan manzara, hayollarga mos ranglar tanlanishi tomoshabinda kayfiyat uyg'otadi.

Rassom ijodida ayollar mavzusi keng o'rin egallaydi. Rassom qo'lga mo'yqalam olibdiki, bu mavzuda zavqu shavq bilan ishlab keladi. «Men jamiyatda muhim o'rinda turgan o'zbek ayollari obrazini tasvirlar ekanman, ularni nozik, nafis, jozibador inson, sodiq va bag'rikeng, mehribon va donolik bilan oila chirog'ini va tinchligini ta'minlovchi hilqat sifatida ko'raman, deb ta'kidlaydi rassom. Rassom uy bekalari, yosh qizlar va har xil sohadagi ayollar portretlarini ishlar ekan, ularning ruhiy holatini ko'rsatishga intiladi. Bu o'rinda, uning «Ayol portreti», «Zuhra opa», «Hamshira» kabi asarlarini eslash kifoya.

Ayol uyning ko'rki, fayzi, farzandlar tarbiyachisi va bekasidir. Ammo rassom faqat shu nuqtai nazardan yondashmaydi, uni, eng avvalo, ayolning ichki kechinmalari qiziqtiradi, ularni ilg'ab olishga urinadi. Garchi ularning chehrasi sodda, go'zal, mehribon qilib tasvirlangan bo'lsada, hali bu ularning haqiqiy olami emas, ulardagi tuyg'ular va hayollar, hayotga, olamga munosabati bilan qiziqarli va jozibali shaxsga aylanadi. («Hamshira», «Talaba», «Kashtachi»). Ular ruhiy kayfiyat va ilohiy nurlar silsilasida ko'rinadi.

«Gul pari» deb atalgan asarida rassom o'z hayolidagi umid - orzularni, nafis dunyo unsurlarini ifoda etadi. Chamanzorda chiltor chalayotgan Gul parisining nozik hatti-harakatlari, libosi, atrof manzarasi keskin, rango-rang bo'yoqdarda beriladi. Bu yerda O'zbekiston tabiatiga xos to'q zangori, kumush, jiggar va pushti-moviy ranglarning qo'llanilishi, pari qiyofasi va libosi o'rta asrga xos turkona qilib chizilganligi bizning tasavvurimizni real hayot bilan bog'laydi, atrofimizga yangicha nigoh tashlashga undaydi. «Momo» (1996) portretida umumlashtirilgan ranglarda donishmand ayol timsoli namoyon bo'ladi. Unda hayotning achchiq, chuchugini boshidan kechirgan, hassaga suyanib, xorazmcha kiyimda turgan momo muloyim nigoh bilan qarab, xuddi sizni kutib olayotganday tasvirlangan. Ranglar nihoyatda chegaralangan, bu timsolni anglashga yanada yordamlashadi. Portret kompozitsiyasi esa sodda, maqsad aniq. Portret ishlovida rassom Yevropa va Sharq maktabi an'analariidan unumli foydalangan. Bu, eng avvalo, unsurlarni aniq

tiniqligi va ranglar surtmasining keskinligida ko'rinadi. «O'razbika momo» portreti qadimiy mumtoz rassomlar uslubida bajarilgan. Portretida rangtasvirning tarang ranglardagi qat'iy ishlangan majmuasi kompozitsiya talabiga javob beradi. Keksa ayolning boshi oq salla (lachak) qoramtir fondan ajralib turadi. Ko'pni ko'rgan, hayotiy tajribaga ega bo'lgan ayolning ko'z qarashlari tomoshabinni hayajonga solishi tabiiy.

Rassom zamondoshlari haqida portret-kartinalar ham yaratgan. «Suvchilar gurungi» Tong», «Hamshira», «Ustaxonada», «Kompozitor R. Abdullayev», «Jurnalist Navbahor», «Muyassar Razzoqova portreti», «Qariya portreti»,

«Sokinlikni tinglab», «Zuxra opa», «Dehqon bobo», «Talaba qiz», «Bobo», «Otam portreti» kabi asarlarda voqelik mohiyatidan kelib chiqqan holda, xolat va davr nafasini badiiy bo'yoklarda aks ettirdi. Rassom keksa otaxonlar, nuroniylar portretini yaratishda ularning ruhiy quvvatlarini, xarakatdagi holatini, donoligini, soddaligini tasvirlashga alohida e'tiborni qaratadi. Bunday xususiyatlar uning talabalik davrida yaratilgan «Qariya portreti» va keyinchalik ishlagan «Keksa ishchi», «Urazbika momo», «Momo», «Xojar xola», kabi asarlarida ham yaqqol sezilib turadi. Bu tuyg'ularning vazminli talqini o'laroq zamon doshlarimiz suratlarida dam ichki bir go'zalliklar mavjini ko'ramiz.

### **2.3. Rustam Xudoyberganovning O'zbekiston tasviriy san'atiga qo'shgan xissasi va yoshlarga badiiy ta'lim berishda uning ahamiyati.**

Rassom haq, u uz ijodida yorqin ranglardan unumli foydalanadi. To'g'ri, ba'zan iliq ranglarning o'z me'yorida ko'p ishlatilishi natijasida suratlarda ayrim ishlarda notabiiy holatlar ko'zga tashlanishi mumkin. Bu, xususan, «Amir Temur portreti»da seziladi. Sohibqironning Malik Nabiyeu ishlagan siymosi asos qilib olingan bu surat rassomning uzoq mehnati natijasi ekanligi sezilib turadi. Moviy osmon, qizargan bulutlar, o'ychan hukmdor siymosi rassom uchun ramziy ifodaga ega. Tik turgan Sohibqironning faqat tizzadan yuqorisi ishlanganligi rassomning o'ylagan niyatiga andak putur yetkazgan. Ijodkor tarixiy mavzuga qo'l urar ekan, o'sha davr muhitini, yaxshi his qiladi. Hatti-harakatlar tabiiy, liboslarning o'sha zamon kishisiga xosligi ishonarli ishlangan. Ma'lumki, inson fe'l-atvori, uning didi va dunyoqarashi ko'zlarida, nigohlarida, hatti-harakatlarida, hatto egnidagi liboslarida aks etadi. Buning bari uyg'unlashib, kishining ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. Rassom shu yo'ldan borish bilan bir qatorda, ranglardagi ifodaviylikdan ham unumli foydalanadi. Bunday hislat «Sulton Abu Sayd Mirzo» portretida ham ko'zga tashlanadi. Ziyrak, shiddatli, qora ko'zli jasur askar Jaloliddin Manguberdi, qahromonona diqqat bilan bizga qarab turgan Spitamen portreti muvaffaqiyatli ishlangan. Bu obraz afsonaviy, ona yurtini himoya qilishga tayyor turgan kuchli, tarixiy personajdir. Bugungi qurolli kuchlar himoyachisining intilishi kerak

bo'lgan ma'naviy yo'nalish shu emasmi. Jonajon Vatanimizni gullashi va mustaqillik uchun kurashga hayotda har doim mardlikka o'rin topiladi.

«Bobur portreti» 1994y tim — yashil saroparda, moviy - yashil tun zirx (fon)ida shoh va shoir siymosi yog'dulangan. Bobur shu holatda juda jonli, juda ko'ngilga yaqin, juda tushunarli. Ko'rinishi osmondan shundoq tushib kelgan nurga o'xshaydi. Shohona libosi, vazmin sallasi, beldagi shamshiri,chiroyli bezalgan soqol-mo'ylabiyu qo'ldagi qalam – qog'oziga qarab beixtiyor: «O'zlari!.. Xuddi o'zlari!..» deb pichirlaysiz. Tashqarida esa tim yashil-moviy tun. Ma'yus sollangan hilol bog'. Salqinlik qoplagan ko'shk. O'rtaga sukut solgan, hijron, hijron, hijr... kim bilsin, hazrat qo'lidagi sahifaga nelar bitdi ekan? «Andijon qovunlari bisyor shirin bo'lur...»

«Chindanda, buyuklarning har bir bosgan qadami, amalga oshirgan ishlarini har qancha ta'riflasak, tasvirlasak oz. Ochig'I, men butun vujudim bilan o'zimni Mustaqillikdan qarzdor xis qilaman. Ana shu Istiqlol sabab o'zbek rassomlari butun jahonga tanildilar. Ona yurtimizda yuqori malakali rassomlar juda ko'p. Ular keyingi yillarda butun kuch-kuvvatlarini tasviriy san'atni yanada baland pog'onalarga ko'tarish uchun bag'ishlamoqdalar. Bu ularning chizayotgan asarlarida namoyon bo'lmoqda», — deydi rassom. Ular orasida Rustam yaratgan tarixiy shaxslar — Tumaris, Spitamen, Amir Temur, Abu Sayd Mirzo, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Feruz portretlari bor.

Shoh Feruz haqida portret yaratar ekan, uni vazmin shoir va ma'rifatparvar xon mujassam etadi. Asardagi ranglar tozaligi va chizgilarning qat'iy izchillik davomiyligi timsol ichki dunyosiga hamohang jaranglaydi. Miniatyura an'alaridan unumli foydalangan rassom zid rang bo'yoqlarda xon siymosini, uning shaxsiyati, tabiatini berishga intiladi. Xorazm qora telpagini kiygan, egnida qizil libos, soqoli bezalgan xonning tiyrak nigohi kishini befarq, qoldirmaydi.

«Tariximizga, o'tmishdagi munavvar siymolarga qiziqish menda avvaldan bor edi. Ularning obrazini yaratib, xalqimizning ma'naviy boyligiga aylantirish haqida ko'p o'yladim, ko'p izlandim. Umr o'tib borayotir, chizayotgan rasmlar ham ko'p edi-yu, ammo o'z ishimdan qoniqish hosil qilmasdim, deydi rassom. —

Mustaqillik davri boshlandi, tarixiy manbalar, avval chop qilinmagan kitoblar nashr qilina boshladi, xuddi so'qir ko'zlarga nur quyilganday yo'llarimiz ravonlashib, yo'qotganimizni qayta topganday his qildik o'zimizni».

Rassom ijodida kartina janri yetakchi bo'lmasa-da, ammo uning yangi imkoniyatlarini namoyish etadi. Rustam «Aslo taslim bo'lmaymiz» (J.Manguberdi. m.m. 120x1401999 y.) kartinasida J.Manguberdi qahramonligini, mardligini, vatanparvarligini real tasvirlarda ko'rsatishga harakat qilgan.

«Tug'ilib o'sgan yurtning umr bo'yi ko'z oldingdan uzoqlashib ketmas ekan, — deydi musavvir. — Yurt mehri, sog'inchi armoni ayniqsa, san'at kishisiga sira tinchlik bermaydi. Men qishloqda tug'ilib o'sganman. Hali-hamon har gal asar yaratishga kirisharkanman, qishlog'imda kechgan umrimning navqiron fasliga qaytgandek bo'laman. O'sha holat, o'sha nazar, o'sha hayrat va o'sha kuch-g'ayrat vujudimni egallab olgandan keyingina, ilhom bilan ijod qila boshlayman. Bu yaratilgan kartinalarim oddiy so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan ana shunday ilohiy bir hodisaning mahsulidir».

Rustam Xudayberganov kartina yaratishdan oldin hayolida paydo bo'lgan mavzuga xomaki kompozitsiya ishlab, keyin unga materillar yig'adi, etyudlar ishlaydi. Shundan keyin zarur bo'lgan o'lchamda, matoda ishlashga kirishadi. Ish jarayonida yurakdan his qilgan holda rang tanlaydi, ba'zi hollarda ular tayyorlangan kompozitsiyadagi ranglardan farq qilishi mumkin. Rassom uchun rang katta, muhim ahamiyatga ega. U rang, mavzu va kompozitsiya bilan hamohang bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Rassom realistik an'anaviy san'atni asrlar davomida xalqqa yaqin bo'lgan, tushunarli ommaviy turi deb biladi. Bugungi kunda realizm yunalishi an'ana bo'lib qolgan. Chunki rassomlar undan biroz uzoqlashib, yana qaytib, davom ettirib kelishayotganligi buning isboti. Har bir millat san'atining o'z an'anasi mavjud, ayni paytda, qaysi bir tomonlari bilan boshqasirikiga biroz o'xshashlikda bo'lishi mumkin.

Rangtasvir o'z nomi bilan rang ifodasidir, unda moybo'yoq, rang asosiy o'rindaligi ma'lum. Rang mavzu va kompozitsiya bilan hamohang bo'lishi, kishiga zavq va estetik did berishi haqida izox bermasa ham bo'ladi. Shunday ekan,

rangtasvir asari chiroyli, go'zal va kelajakka chorlab, ma'naviy oziqa berishi lozim. Shu ma'noda, Rustam uchun rang juda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rangga katta e'tibor berishi tufayli ijodi boshqalardan farqlanib turadi. Rassomning ba'zan kam ranglar bilan ishlab, e'tiborga loyiq asar yaratish uslubi amerikalik rassom Uayet dastxatini sal eslatadi. Ularning ayrimlarida ba'zi rassomlarimiz Bahodir Jalolov va Shuxrat Abdurashidovlarning asarlariga hamohanglik («Qishki manzara», «Hovuz yonidagi qariya» asarlari) yohud rangtasvirdan ko'ra mahobatli (monumental) devoriy san'at unsurlari ham sezilib qoladi.

Izlanishlar jarayonidagi bunday nuqsonlar har bir rassom ijodida tabiiy kechishini yaxshi bilamiz.

«Shaharning qorli ko'chasi»da («Bolaligimiz ko'chalari» kartinasi) guvalali past-baland uylar va yo'l chekkasidagi daraxtlar, bolalarning shovqinli suhbatlari, ufqqa joylashgan ko'p kavatli yangi imoratlar, eskilikka yangilik taqqoslangan holdagi lavhalarni ko'ramiz. Ularga o'ziga xos ranglar tanlangan. Ko'chada ketayotgan kampir nevarasi bilan nimalarnidir so'zlashmoqda. Bu holat orqali avlodlar an'anasi, o'tmish va kelajak bog'liqligi ramzi his etiladi.

Rassom yaratgan kartinalardagi dunyo insoniy, umidbaxsh tarzda namoyon bo'ladi. Ular dramatismga, ichki xarakterga, his-hayajonga nihoyatda boy, ba'zan vazmin, shoirona nafis, ba'zan esa shiddatli va keskindir. Ayni paytda, xalqchilligi bilan diqqatga sazovor.

Rustam Xudayberganov — monumentalchi rassom, devoriy suratlar ustasi. U instituti bitirgach, 1979 yil yangi tashkil qilingan Toshkent haykaltaroshlik va monumental san'ati kombinatida ijodkor rassom sifatida ishni davom ettirdi. Rustam ishlagan devoriy suratlarni Xanti-Mansi avtonom okrugidagi Nyagan shahrida (Rossiya), Xarkov, Toshkent, Termiz, Urganch, Isfara (Tojikiston), Perm (Rossiya), Tashauz (Turkmaniston) shaharlaridagi jamoat binolarida uchratish mumkin. Ularda freska, mozaika, vitraj kabi shaklda monumental kompozitsiyalar ishlangan. Madaniyat saroylari, restoran, sport saroylaridagi bezaklarda mehnatkash xalqning oddiy turmush tarzini hikoya qiluvchi devoriy asarlar unga shuhrat keltirdi. Bu dekorativ bezaklar boshqalar ijodidan o'zgacha uslubi bilan

ajralib turadi. Xususan, Tojikiston va Uzbekistonning ko'plab kafe, choyxona va restoranlarida freska va mozaikada ishlangan asarlarida u ko'proq o'zi tug'ilib o'sgan yurt — o'zbek diyorining manzaralarini aks ettirgan.

Rassom ko'p katta shaharlarni ko'p ko'rdi; Qohira, Berlin, Belgrad, Zagreb, Moskva, Sankt - Peterburg, Frankfurt na-Mayne, Drezden, Dehli, Kuala-Lumpur, Singapur, Istambul, Qayseri, Kapadokiya, Shanxay, Xanjou...

Ijodkor rassom sifatida qo'shni va Boltiq bo'yi mamlakatlarida, Yugoslaviya, Sloveniya, Xorvatiya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Singapur, Rossiya, Misr, Gruziya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarning yirik shaharlarida ijodiy safarda bo'lib, dunyoqarashini kengaytirdi, boshqa millatlar tasviriy san'ati namunalari bilan yaqindan tanishdi. Albatta ijodiy safarlar rassom uchun katta ahamiyatga ega. Yangidan-yangi asarlar yaratishga undashi aniq. Begona yurtlarda bo'lish o'z yurtining yangi qirralarini ochishga, teran his qilishga zamin yaratadi. Yangi kuch, quvonch bilan ijodiy muhitga undaydi.

*«Safarim juda yaxshi o'tdi. Taassurotlarim bir dunyo. Brandenburg shahrida shaxsiy ko'rgazmam ochildi. Safar mobaynida men Frankfurt, Berlin, Potsdam, Drezden shaharlarida bo'lib, tarixiy hamda zamonaviy me'morlik yodgorliklari bilan yaqindan tanishdim. Ayniqsa, Drezden shahridagi butun dunyoga mashhur bo'lgan badiiy galereyada bo'lib, jahon tasviriy san'atining daholari Titsian, Rafael, Botichelli, Rivera, Vermer, Rembrandt, Rubens, Van Deyklar ijodidan bahramand bo'lish nasib etdi. Bunday bahramandlik — har bir rassom uchun ulug' baxt, orzularning ushalishi. Shu orada bir qator germaniyalik rassomlar va ularning asarlari bilan tanishishga musharraf bo'ldim». Muzaffar. (Guliston jurnali 4-son, 2001 y. «Dunyo taniyotgan iste'dod).*

Rassom horijda qancha ko'p yurmasin, ular qanchalik go'zal bo'lmasin, negadir o'zini o'ng'aysiz sezdi. O'zbekiston baribir bo'lakcha, uning so'lim joylari ko'pligi, daraxtzor bog'lar, sokin joylari, ranglar daryosiga g'arqligi bir taraf bo'lsa, bunyodkor, qalbi daryo odamlari bir taraf.



Toshkentda u ko'pdan beri yashaydi. Vaqt bo'ldi deguncha, uning atrofini aylanadi: Bo'zsuv, Anhor bo'ylari... Bu yerlar, uning eng sevgan, hordiq chiqaradigan joylari. Toshkentda yoshlik yillarida rassom Chingiz Axmarov, Bahodir Jalolov, Yuriy Chernishovlar xonadoniga va ustaxonalariga tez-tez borib turardi. Ko'p hollarda ish yuzasidan bo'lsa, ba'zida o'zaro ijod haqida suhbatlashish uning uchun maroqli onlar edi. Ch.Axmarov bilan bir sexda ishlagani uchun ustoz sifatida xabar olib, uning ijodi bilan tanishishga, yangi asarlarini ko'rgani borib turardi.

Bahodir Jalolov bilan birga bir necha binolarni bezashda qatnashdi. Kinochilar uyidagi bezaklar, To'ytepa restoranidagi naqshlar, Qo'qon teatridagi bezak tasvirlar, Xalqlar Do'stligi saroyi uchun gobelen kabi ishlarni bajarishda unga yordam berdi. Boshqa paytlarda yangi binolarni loyihalashda eskizlarni maslahatlashib olardi. Bularning bari uning ijodiy o'sishiga zamin yaratdi.

Rassom o'zini baxtli his qiladi, chunki uning atrofida do'stlari, hamkasblari bor: ular rassomlar, musiqachilar, pedagoglar bo'lib, toza ko'ngilli, mehnatsevar ijodkor insonlar. Ular bilan uchrashib turishni yaxshi ko'radi. Albatta, turli toifadagi odamlar bor. «Dushmanim bor deyishim qiyin, ammo hasadgo'ylar uchrab turadi. Oddiy qishloqdan chiqqan bola Toshkentdek shahri azimda o'z mehnatim bilan unvonlar oldim, professorlik darajasigacha ko'tarildim. Bu ba'zi kishilarga yoqmasligi mumkin. Nima bo'lganda ham, raqiblar hayot uchun kurashga, yuqori pog'onaga ko'tarilishga, yangi manzillarni zabt etishga undovchi kuch deb bilaman, - deydi rassom. – O'qish, talabalalik va mehnat qilish jarayonida har xil odamlarga ro'para bo'lamiz, ba'zilari bilan umrbod do'stlashib qolamiz. Bu hammamizga ma'lum holatdir. Men ham hayotim davomida har xil insonlar bilan ishlashimga, yashashimga tug'ri keldi. Ular orasida madaniyatli, vazmin, sho'x, talantli, xushmuomala, o'z do'stiga sodiqligi bilan bir-biridan ajralib turadigan insonlar bor. Do'stlik - bu yaxshi fazilat, ammo doimo do'st bo'lib qolish esa baxt deb hisoblayman. Do'stlikni qadrlash, saqlash hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Xizmat yuzasidan kasbdoshlarimning ba'zilari bilan juda yaqinlashib, ijodiy hamkorlik qilib keldim. Shulardan biri rassom-monumentalchi, Chingiz Axmarovning shogirdi Erkin Nazarov edi. Erkin asli Surxondaryoning Denov tumanidan edi. U bilan bir necha binolarni bezashda hamkorlik qilib ishladik, birga yashadik. Tez-tez uchrashib suhbatlashardik, ijodiy ishlarimizni rejalashtirib, yangi asar ustida fikrlashib olardik. Har xil narsalarga qiziquvchanligi sabab atrofida gillarni ham o'z qiziqishiga jalb qila olardi. Shu boisdan meni ham sport bilan shug'ullanishimga undab, birgalikda mashq qilardik. Chunki kasbimiz jismoniy baquvvatlikni talab qiladi. Uning yosh bolalarcha soddaligi, qo'li ochiqdigi, har doim yordamga tayyorligi, muhtoj bo'lsang oxirgi chaqasini berishdan ham qaytmasligi kabi insoniy xislatlari bor edi. Bayramlarda tabriklab, hol-ahvol so'rab turishi, kerak bo'lsa, yordam berishi sira yodimdan chiqmaydi. Ijodiy ishlari ham o'ziga xos bo'lib, bolalarcha dunyoqarashdek taassurotni tasvir va rangda amalga oshirib bajarardi. Yurtimiz shaharlaridagi binolarda uning ijodiy ishlari mozaika, lavhalar timsolida muhrlangan. Bir tasodif bilan olamdan o'tgan bu rassomni Olloh rahmatiga olgan bo'lsin. U do'stlari, hamkasabalari bilan tez-tez uchrashib turardi va har kim o'zini yangi qilayotgan ishi haqida gapirib berardilar. Ayniqsa, kimning ishi badiiy kengashdan o'tsa, albatta, yig'ilishib, muhokama qilar edik, suhbatimiz yarim tungacha cho'zilib ketardi. Suhbat har xil mavzuda davom etib, yana ijod haqida to'xtalib, baxslashishlar qizib ketardi. Biz kabi yoshlar jimgina quloq solib o'zimizga xulosa chiqarardik. Ko'p yangi narsalarni eshitsak, xursand bo'lardik.

O'sha kezlari kattalar tajribasi biz uchun har doim saboq bo'lardi. Ayniqsa, monumentalchi rassomlar: Chingiz Axmarov, Valentin Jmakin, Albert Mazitov, Arnold Gan kabi ustozlar qatnashgan davra qiziqarli o'tardi. Biz uchun katta rassomlardan o'z ijodlari haqida eshitish qiziqarli edi. Uchrashuv davralari ustaxonalarda bo'lganida, ularning yaratgan asarlarini ko'rib havas qilardik, bizga ham shunday martaba nasib qilishini orzu qilardik. Talabalik davridan ustozlarimiz ustaxonalariga borishni intiqib kutib yangi yaratgan asarlarini ko'rishga intildik. Bahodir Jalolov, Yuriy Chernishov ustaxonasi har doim yoshlar kabi mehmonlar

bilan gavjum bo'lardi. Men ham bu rassomlar bilan ko'p ob'ektlarda birga ishlardim, mahoratimni oshirishga harakat qilardim. Monumental san'atida ustozlar bilan ishlash malakani oshirib borishga katta yordam beradi. Qolaversa, bu san'at turi ko'pchilik bo'lib ishlashni taqazo qiladi.

Rassom bir paytlar institutni bitirib, O'zbekiston Badiiy fondiga qarashli Toshkentdagi «Rassom» kombinatida yosh monumentalchi rassom sifatida ish boshlagan bo'lsa, mana yigirma yildirki, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida talabalarga rangshunoslik fanini o'qitib keladi. Rassomning 2006 yilda «Rangshunoslik asoslari» o'quv kitobi nashrdan chiqdi va 2008 yili vazirlik tomonidan buyurtma asosida qayta nashr qilindi.

R. Xudayberganovning ijodiy izlanish diapozoni keng bo'lib, har bir asarga qattiq talab bilan yondashadi. Pedagog sifatida bu xislatni yoshlarga singdiradi. U K. Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida kompozitsiya, chizmatasvir, rangtasvir fanlaridan o'tkazgan dars mashg'ulotlarida o'z mahorat sirlarini talabalar bilan baham ko'radi.

Rassom fikricha, uni ilxomlantirib turuvchi omil nafaqat hayot, balki ustozlar o'giti, ayni paytda, ular yaratgan asarlar... Buyuklar o'z san'ati bilan ham ustozlik qiladi. Rassom bu asarlar orqali ulardan ko'p narsani o'rganib kelmoqda. Xususan, u Sandro Botichelli, Leonardo da Vinchi, Vrubel, Rafael, I.N.Kramskoy, B.Sherbakov, I.Repin, CH. Axmarov, B. Jalolov va boshqa rassomlar ijodidan ilhomlanib keladi. Bundan tashqari, ko'rgazmalarda qalbiga yaqin asarni ko'rsa, zavqqa to'ladi, ruhlanadi. Rassom uchun ruhiy quvvatlilik juda zarur. Ruhiyati kuchli inson jismoniy ojizlikni ham yengishi mumkin. Ma'naviy sog'lomlik esa uni yuksaklikka ko'taradi, deb o'ylaydi.

Muallifning yutug'i shundaki, u romantik realizm, milliy ruh, yuksak estetik didga intiladi.

«Tasviriy san'atda eng muhimi. — o'z uslubingni topish, — deydi rassom. — Men ham o'z uslubimni topish uchun shuncha yillar izlandim, o'rgandim, ijodiy izlanish esa, umuman, uzluksiz davom etaveradigan jarayon, u to'xtamaydi. Men esa har bir asarimda yurtimizning ranglari, ruhiyati, urf-odatlarini sezilib turishini,

shularning barchasini o'zimga hos uslub bilan, ichki bir tuyg'u, joziba bilan aks ettirilishini juda istardim. Yurtimizning har bir qarich yeri mo'jizaviy ranglarga boy, osmonimiz esa tinch va tiniq, quyoshli. Mana shu go'zal diyorumizni, shovullagan afsonaviy bog'larimizning tarovatini tasvirlashni niyat qilganman. Ijodkor uchun ona yurtini go'zalliklarini kashf etishdan, kuylashdan, Vatan kuychisi deb nom qozonishdan ulug' baxt yo'q. Katta rassom bo'lish — katta mashaqqatlar evaziga, xudo bergan chinakam iste'dodni yuzaga chiqarishdan iborat. Tasviriy san'at tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' musavvirlar hayoti ham, oddiy rassomlar turmushi, ularning rassomlik yo'lidagi ranju amallari — har biri o'z holicha bir kitob, bir-biriga o'xshamaydigan, betakror bir turmush haqidagi roman desak bo'ladi. Men buni «rassomlarni avaylanglar» degan ma'noda aytayotganim yuk, umuman, rassom bo'lib yetishishning o'zi hamma vaqt, hamma mamlakatdayam shunday ekanini bilganim, tasavvur qila olganim uchun aytmoqdaman.

Rassomdan nima talab etiladi? U surat chizishdan tashqari, hayotni yaxshi bilishi kerak va kasb mahoratini doimo oshirib borishi, biror kun rasm chizishu izlanishdan to'xtamasligi shart. Men bir necha marta rassomlikdan qaytishga, ijodni to'xtatishga urinib ko'rganman, oddiy insonlar kabi yashashga, asar yaratmaslikka ahd qilganman, ammo ... buning uddasidan chiqolmadim, shunday qilsam, butun umrim o'z mazmunini yo'qotib qo'yadiganday, yana dastgohim oldiga qaytib kelaverdim. Ruhiyatimdagi tug'yon, ilhom, quvonch va tashvishlarni boshqalarga ulashish, odamlar bilan dardlashish tuyg'usi meni yana ko'lga qalam olishga yetaklayverdi. Yangi-yangi asarlar yaratish, go'zal qiyofalar, ulug'lar siymosini yaratish ishtiyoqi mening hayolimni hamisha band qilaverdi. Aslida, rassomga kuch-quvvat beradigan, uning oromini o'g'irlyadigan tuyg'ular ham mana shular. Buni ijod mashaqqati deysizmi, rassomlik jununi (darveshlik) deysizmi — ixtiyor sizda. Yuragida cho'g'i bo'lgan har qanday ijodkorni yuksaklikka ko'taradigan, xalqqa tanitadigan, elga aziz qiladigan oddiygina bir yo'l bor. Bu izlanish, halol mehnatdan qochmaslik, erinmaslikdan iborat. Ijodkor uzoq tunlarni oqartirib, uyqu, shaxsiy halovatidan, oromidan kechib mehnat

qilganda, mutasil yangi yo'llar, uslublar izlashdan tinmaganidagina ezgu maqsadga erishadi».

*2012 yilning 16 dekabri. Hovlimning bir chetidagi uy xonasida rassom bilan suhbat qurib utiribmiz. Tashqarida qor yog'ayotganiga qaramay, uy ichida gulu lolalar, chechaklar hidi kelganday bo'ladi. Sababi, rassom menga kompyuter orqali talabalik yillarida ishlagan ilk etyudlarini namoyish etyapti.*

— Mana bu — ilk ijodga qo'ygan birinchi qadamim —1970 yilda Nizomiy nomidagi ped institutni bitirishdagi «Lola sayli» deb nomlangan diplom ishim. Talabalik yillarida bahor paytida Chimyonu Xumson, Oqtosh tog'lariga lola sayliga kursdoshlarim bilan toqqa dam olishga chiqib turardik. Baland qorli tog'lar etagidagi adirlar... Erta bahor ramzi bo'lgan qip-qizil ochilgan lolalar. Uni ko'rib hayratlanganim. Bizning Xorazm tomonlarda bunday tog'lar, adirlar bo'lmagani uchun bu yerda ko'rganlarim menga ertaklardagidek, afsonaviy edi. Lola saylidagi yoshlik sho'xliklari, qiziqarli voqealar, ajoyib manzaralar, tog' bag'ridagi sayrlar umrbod esimda qolgan. Shu ko'rganlarim haqida kichik bo'lsa-da, biron manzara yaratsam deb diplom ishimga ham shu mavzuni tanlaganman. Ammo ish jarayoni nihoyatda qiyin kechdi. Qog'ozga tushirishda bilim va mahorat kamlik qildi. Bir necha marta toqqa chiqib, manzaralardan etyudlar ishladim. Lekin kompozitsiya tuzilishi meni qoniqtirmasdi. Shunday bo'lsa-da, o'qituvchilarim yordamida uni imkon darajasida amaga oshirdim. Lekin bu ishimdan yetarli qoniqmaganim sababmi, shu kungacha bahor manzarasini ishlab kelaman. Ko'rganlarim, kechirgan his-tuyg'ularim keyingi ishlarimda qo'l keladi. Balki bahor tasvirini mukammal ishlashga bo'lgan muhabbat, bir ishni oxirigacha yetkazmay qo'ymaslikdek qaysarligim ham sababdir. Har doim qayta-qayta shu mavzuda ishlagim kelaveradi. Bu mavzu orqali yoshlikning beg'ubor dunyosini, sevgi-muhabbatini, hayotga bo'lgan jo'shqin intilishini qancha tasvir etsam ham, kamday tuyulaveradi. Ana shu xotiralarni eslab tursam, kuchimga kuch, ijodimga baraka qo'shiladi.

—**Siz ilk ijodingizdayoq ranglarga aloxida mehr bilan yondashganingiz sezilib turadi. Buning ustiga, talabalar uchun rang bo'yicha bir necha o'quv**

**qo'llanmalari ham yozgansiz. Siz rang rangshunos deganda nimani tushunasiz. Keling, shuni sharhlab bering.**

— Nazarimda, ko'pchilik beixtiyor, o'zlari sezmaganda ham rangshunos. Misol uchun, rangi yoqmagan kiyimni hech kim ham kiygisi kelmaydi. Har bir odamning yaxshi ko'rgan rangi bor, bu albatta, kishining o'z ruhiyatiga ham bog'liq. Rang tanlashiga qarab, kishining didini, xarakterini, kasbini aniqlash qiyin emas. Biz xohlaymizmi, yo'qmi, hayotda har doim rangga bog'liqmiz. Yashash joyimiz, uyimiz, bahor kelishi bilan yam-yashil dalaga chiqib hordiq chiqarishni, gullarni kuzatishni, hidlashni juda xohlaymiz. Bu — tabiiy hol, qolaversa, ruhiy extiyoj. Bahor yomg'iridan keyin osmonga tikilib, xursand bo'lamiz, unga qayta-qayta qaragimiz keladi, ko'zimiz to'ymaydi. Bularning hammasi tabiatdagi ranglar uyg'unligi, ularning tabiiy holatdagiligi bizni shodlantiradi, ba'zi o'zgarishlari esa ko'ngilga g'ashlik soladi. Xullas, ranglar mutanosibligida buyuk bir saboq, dars bor. Rassomlar ham tabiatdan o'rganib, ranglarni qalbidan o'tkazib, tabiiy ranglarni o'rganish asosida yangi ranglar uyg'unligini hosil qiladilar, o'ziga xos asar yaratishga intilishadi. Ranglar nisbatini yangicha uyg'unlashtirib, qalbida paydo bo'lgan asarni tomoshabinga yetkazishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham chinakam rassomlar bir-biriga deyarli o'xshamaydi. Har birining o'z dunyosi, qalbi mavjud.

**—Rassom rang tanlashda qaysi xususiyatlarga e'tibor qiladi? Axir, bir qaraganda, olti-yettita rang bordek tuyulgan bu olamda mavjlanib ketadigan iliq va sovuq ranglar ko'shilishidan millionlab tuslar paydo bo'ladi. Quyoshning, nurning g'aroyib sochmalaridan rang o'zgarishlari ro'y beradi.**

To'g'ri. Ayniqsa, yurtimizda ranglarning mo'lligi — rassomning baxti. Ammo rassom borliqda oddiy kishilar ko'ra olmaydigan rang nisbatini, koloritini hosil qilish quvvatiga, imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Ochiq aytganda, rangshunoslikning nozik tomonlarini ko'ra bilish va bu ko'nikmani hosil qilish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun tinimsiz izlash, mashq qilish, ko'zni chiniqtirish kerak. Bundan tashkari, rassomlikda ranglardan foydalanib asar yaratish jarayoni har xil kechadi: kimdir bir necha oddiy ranglarni ko'rsa, boshqa

birovlar eng nafis ranglar gammasini seza oladi, bundan o'z asarida to'la foydalanadi. Men har doim Moskvada bo'lganimda, Tretyakov galereyasidagi rassom Vrubel asarlarini sinchiklab kuzataman. Chunki rassom qanday asar yaratmasin, ranglari sirli, g'amgin, undagi nozik dramatik ruh mavjudligi meni o'ziga tortadi. Yaxshi asar faqat ranglar orqali kishining qalbi to'riga yetib borishi mumkin.

**—Rangga munosabat turli oqimlarda turlicha kechgan. Meni impressionist rassomlar ko'proq qiziqtiradi. Aytaylik, Pol Gogen, Van Gog, Sezann...**

— Impressionist rassomlar ikki rang dog'ini matoga yonma yon qo'yishi orqali sirli uchinchi rang sezgisini hosil qilish mahorati kishiga huzur, zavq bag'ishlaydi. Har bir millatning ham o'ziga xos ranglari bor deyish mumkin. Bu, albatta, makonning geografik joylashishi, tabiatining xususiyati, millatlar xarakteri kabi xislatlaru xususiyatlar milliy ranglarning shakllanishiga asos, poydevor bo'ladi. Shuningdek, ranglarning ruhiy ta'siriga qarab, ramziylik holati ham mavjud.

**—Shaxsan siz bu ranglardan amaliyotda qanday foydalanasiz? Ularning o'zingiz belgilagan tartibda ishlash me'yoriy o'lchovi bormi?**

—Boshqalarni bilmadim-u, men uchun shakllangan me'yor, ko'nikma albatta, bor. Aytaylik, o'z asarlarimda asar g'oyasi, mazmuniga qarab, har xil rang yechimida. ba'zan uch – to'rt rang, ba'zi xollarda o'nlab rang va tuslardan foydalanaman. Masalan, «Qish», «Shahar chekkasida»gi qish manzarasini ishlashda uch-to'rt rang va ularning tuslanishi, kuz manzaralarida esa unga yaqin rang va ko'plab tuslardan foydalanib, ishlashga harakat qilganman.

**—Bu, endi tabiat manzaralarini ishlashdagi uslubingiz bo'lsa kerak. Ammo sizda arxitektura, me'moriy binolar, obidalar aks etgan ishlar ham talaygina. Ularni ishlashda rang yechimlari boshqacha ekanligi sezilib turadi...**

—Rost aytasiz. Arxitektura manzaralarini ishlashda esa ikki-uch rangdan foydalanganman. Ammo shu ranglarni hosil qilishda, ularni bir -biriga uyg'unlashtirishda soatlab rang aralashmasini izlab ko'rganman. Ana shundan

keyin asarni ishlashga kirishganman. Ranglar dog'ini matoga qo'yishda ham ko'p izlanishga to'g'ri kelgan.

**—Agar sir bo'lmasa, ana shunday jarayon haqida to'xtalib o'tsangiz. Bu narsa, ayniqsa, boshlovchi rassomlar uchun juda asqotadi.**

—Qaysi bir rang bo'yoqni (oq va qoradan boshqa) kulrang bo'yoq bilan aralashtirsak, bir necha murakkab rang tusllarini hosil qilishimiz mumkin. Agar bitta rangli bo'yoqni kulrang bilan aralashtirsak, juda ko'p bir xil tusdagi rang bo'lakchalarini topamiz. Ochroq tusdagi rangni hosil qilish uchun oq rang, qoramtir tusdagi rangni hosil qilish uchun esa qoramtir bo'yoq bilan aralashtirish mumkin.

**—Tabiatdagi rangin evrilishlar siri mana shunday tarzda ro'y beradimi? Axir, Tabiatdagi buyuk o'zgarishlar, jumladan ranglar jilosi ham Yaratganning xukmiyu irodasi bilan ro'y beradi. Ularning fizikaviy, kimyoviy va ilohiy jamoli borligini unutmaslik kerak.**

—Siz bu sirli olam koshonasida ranglar moxiyatini to'g'ri angladingiz. Men bir rassom uchun kerakli bo'ladigan ayrim tajribalar haqida so'z ochdim. Mana, misol uchun, bo'yoq tarkibi tiniq qizil rang bo'lsa, kulrang bo'yoq rangi bilan aralashmasi esa tiniq qizil rangga o'xshamaydi. Qizil rang tarkibida kulrang qanchalik ko'p bo'lsa, kulrangga shunchalik yaqinlashadi, rangsizlanadi. Xromatik rang darajasining farqi shunday: axromatik rang tusiga qanchalik yaqinlashsa, uni to'yinganligi susayadi. Shuningdek, qizil yoki boshqa rang tarkibida kulrang miqdori darajasi rang to'yinganligini o'zgartiradi. Xromatik ranglar bir-biridan yorqinligi, rang tusi va to'yinganligi bilan farq qiladi. Masalan, limon rangi binafsha rangga nisbatan kam to'yingan.

**—Rang to'yinganligi, yorqinligi bu san'atshunoslar tez-tez qo'llaydigan iboralardan biri. Uni siz qanday izohlaysiz?**

—To'yinganlik — bu rang tusi, rangdorlik darajasidir. Binafsharang (kraplak), shuningdek, baqlajon (ultramarin) rang tusi limon rangiga (sariq) nisbatan tusi farqligi bizga ma'lum. Rang yorqinligi, tusi va to'yinganligi rangning asosiy



xususiyati deyiladi. Rang haqidagi fanda rassomlar «yorqinlik» atamasini «yorqinlik kuchi» bilan almashtirib ishlatadilar. Rang tusi tushunchasini rassomlar rang deb ataydilar (rang tusi bo'lmagan axromatik ranglarni rangturiga qo'shmaslik kerak). «To'yinganlik» termini tushunchasi rang yorqinligi bilan bog'liq.

—**Bunday tushunchalar nafaqat rassomu san`atshunoslarda, balki tasviriy san`atni sevadigan tomoshabinda ham shakllanishi lozim. Men, albatta, birbiridan qiyin atamalarni nazarda tutayotganim yo'q. Axir, Navoiy bobomizning she`rlarini tushunish uchun ozgina Bo'lsa-da, tayyorgarlik bo'lishi kerak. Tasviriy san`at asarini ham tushunishda o'ziga xos talablar borligini esda tutish lozimda. Darvoqe, suxbatimiz davomida siz yorug'lik kuchi xaqida gapirmoqchi edingiz.**

- Yorug'lik kuchi o'zgarishiga qarab, buyum umumiy ravshanligigina emas, balki uning rangi ham o'zgaradi. Yorug'lik pasayganida, buyumning rang yorqinligi (kuchi) ham pasayadi. Bo'lutli kunda kukatlar rangi quyoshli kunga qaraganda yorqinligi past bo'ladi. To'g'rimi? Shimol mamlakatlari manzaralarida janubga nisbatan ranglar jilosi, yorqinligi ham pastdir. Bo'yoq bilan rangtasvir ishlash jarayonida buyumdagi eng oq qismini eng oq buyoq bilan, eng yorqin rangli joyini yorqin to'yingan buyodarda ishlash shart emas, faqat ranglar orasida rang nisbatlari moye bo'lsa bas.

- **Rangtasvir asariga baho berilganda, uning yaxshiyu zaifligini qaysi mezonlarga ko'ra baholaymiz? Men bu o'rinda faqat ranglardan foydalanish maqomini nazarda tutyapman.**

- Ranglar munosabatlari (nisbati), umumiy tusi va ranglar holati to'g'ri topilgan san`at asarini yaxshi rangtasvir deyishimiz mumkin.

Rassom buning uchun asliga qarab, ranglar holatini va umumiy ohangini, ranglar munosabatlarining proportsional miqdorini to'g'ri topish uchun, eng avvalo, ranglar tusini va ranglar nisbatini aniqlash kerak. Ish boshida eng yorug' va eng qoramtir rang qismini aniqlab olish kerak. qaysi rang gammasi tuzishni, qaysi rang tuyinganligi, rang och yoki qoramtirliigi darajalarini aniqlash lozim.

- **Rangshunoslikning bunday nozik sirlar anglash hammaga ham nasib etavermaydi."** Rangtasvir boshqa janrini turlardan mana shunday murakkab jarayoni bilan farq qilganliga uchun bo'lsa kerak, tasviriy san`atda, eng avvalo, u tilga olinadi.

- Men talabalarimga bu jarayonni qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Xususan, rangtasvir ishlashni boshlaganda tus (ton)ni haddan tashqari oqish rangda yoki o'ta to'yingan ranglarda bo'yash maqsadga muvofiq emasligini uqtiraman. Masalan, yoritilgan qomat yoki boshni olaylik, yoruglik tushgan qismi o'ta yorqin rangda ishlansa, keyinchalik shu joydagi yaltirok joylarini tasvirlash juda qiyin bo'ladi. Shakl tasviri mato tekisligidan chiqib qovushmasligi, asar yaxlitligi amalga oshmaydi. O'ta rangdorlik darajasi dam maqsadga muvofiq emas.

- **Ma`lumki, realistik rangtasvirda tabiatning yoritilganlik xolatini ifodalay olish muhim xisoblanadi. Natura (tabiatning ma`lum bir soatdagi yoki ma`lum bir fasl, ob-havodagi umumiy tusi va rangdorligi shu vaqtga xos bo'ladi. Ularni tasvir etishda nimalarga e`tibor qilinadi?**

- Kunning turli paytida va turli ob-havoda yoki faslda ishlangan manzaralar bir-biridan farq qilishi zarur. Yetuk rassomlarning turli yoritilganlik holatidagi asarlarini kuzatadigan bo'lsak, ular havo ochiq yoki Bulutli kunni ifodalovchi tasvirlari bilan ajralib turadi. Rangning quyuqligi yoki yorqinligi vaziyatning nozik yoki qaltisligini, qahramonning kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Turli yoruglik manbaida ishlangan asarlarni kuzatganimizda, quyosh botish sahnasi barcha tasvirlarda umumiy pushti-qizil rangda ekanligini kuzatish mumkin. Oy yorug'ida yashil-ko'k, kulrang bo'yoqdar asosiy o'rin egallaydi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, rang birligi va bo'yoqlar muvofiqligi barcha holatlarda asosiy yoki aks etayotgan yorug'lik manbaining spektral tarkibiga bog'lik. Shuning uchun rassom naturadan asar ishlayotganda ma`lum bir tus va rang qamrovida umumiy ranglar munosabatini tiklabgina qolmasdan, ranglar uzviylikini yodda tutishi zarur.

Shunday qilib, realistik rang-tasvirda rang tasvirining barcha jihatlari o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Ranglarning boyligi va muvofiqligi uning eng muhim jihati hisoblanadi. Etyud yoki kartina rangi quyidagilar bilan belgilanadi: 1) xajmni, shaklni berishda va makonni ifodalashda ranglarning boyligi va xilmaxilligi; 2) yoritilganlikning umumiy turi va rang xolatini xisobga olgan holda, naturada asosiy rang munosabatlarining muvofiqligi; 3) naturadagi ranglarni birlashtiruvchi yorug'lik rangi ta'sirini berish.

Asarda bu vazifalarni bajarish badiiylik vazifasini hal etish bilan barobardir, shunda rangning emotsional ta'sirchanligiga erishiladi. Kishilarning idrok qilish xissiyotlari, sezgilar xarakati tabiatning ko'tarinki ham tushkin holati bilan uzviy bog'liq. Yoritilganlikning xaqiqiy sharoitini aks ettirib, bu sharoitda naturaning xajmiy, moddiy, makoniy sifatlarini talqin etib, tasvirning rang qurilmasi tomoshabin hissiga ta'sir qiladi, ma'lum bir kayfiyat beradi, estetik hissiyotlar uyg'otadi.

Uy devorini bo'yash uchun rang tanlashda, parda uchun qaysi rangdagi gazlamani olish xususida maslahatlashib o'tirilmaydi, chunki o'zimizni bu sohada bilimdon deb xisoblaymiz.

Bu sodada biror umumiy tavsiya bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Ammo shunday tavsiyalar bor. Ular rangning insonga ta'sirini o'rganib tuzilgan.

«Rang va inson» muammosini turli mutaxassis olimlar o'rganishyapti. Ular orasida do'xtirlar, fiziologlar, kimyogarlar, fiziklar, muhandislar, psixologlar bor.

Ranglar inson organizmiga, uning asab tizimiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish binolarini bo'yash bo'yicha taniqli mutaxassis, Frantsiyadagi texnika-estetika institutining asoschisi Jan Venno bunday yozgan: «Rang har narsaga qodir: u nur va xotirjamlik hamda hayajonni keltirib chiqara oladi. U garmoniya vujudga keltirishi va larzaga solishi mumkin, undan mo'jizalar kutsa bo'ladi, ammo falokatga olib kelishi ham mumkin». Asrlar davomida tugalangan tajriba ham bu fikrni tasdiqdaydi. Qizil rang hayajonga solishini, ko'k rang hotirjam qilishini, Qora rang qayg'ular uyg'otishini qadim zamonlardayoq bilganlar. Sariq rang esa kayfiyatni yaxshilaydi.

Ranglarni qadim zamonlardayoq iliq va sovuq ranglarga ajratganlar. O'rta asr shifokorlari ba'zi ranglarning sehri kuchiga ishonib, odamlarni rang bilan davolamoqchi bo'lganlar. Davolashning bunday usullari hozir ham qisman saqlanib qolgan. Masalan, Frantsiyada ruhiy kasallarni devorlari maxsus rangga bo'yalgan xonaga joylashtirib davolaydilar.

Rus ruhshunosi va nevrologiya V. M. Vaxterov laboratoriyasida rangli yorug'likning ruhiy jarayonlar o'tish tezligiga ta'siri aniqlangan. Uzun to'lqinli yorug'lik ruhiy jarayonni tezlatishi, o'rtacha to'lqin reaksiya tezligini pasaytirishi, qisqa to'lqinli yorug'lik kishini ezishi ma'lum bo'lgan. Moviy rang kishi asabini xotirjam qilgan. Ruhan ezilgan kishilarga esa och qizil rang foydali ta'sir qilgan.

Olimlarning tajribalari anemiya - kamqonlik kasalligi uchragan bolalarni davolashda qizil rang foydali ekanligini ko'rsatadi. Bunday bolalarda qizil rang ta'sirida qizil qon tanachalari ko'paygan, kayfiyati yaxshilab, semira boshlaganlar.

Ko'k rang ko'zning qon bosimini kamaytirib, qonning qon tomirlaridan normal yurishini ta'minlaydi. Buni professor SV. Kravkov aniqladi. Uning shogirdlari esa rang bilan davolash usulini ishlab chiqdilar.

Gloukoma kasaliga chalingan kishilar uchun hozir ko'k shishali ko'zoynaklar ishlab chiqariladi.

Bularning hammasi va boshqa faktlar turli ranglar kishi organizmiga, asab tizimiga va, avvalo, ko'zga turlicha ta'sir qilishidan dalolat beradi,

Ko'zimiz juda murakkab va eng takomillashgan optik asbob, asosiy sezgir organlarimizdan biridir. Ruxshunoslar odamlar hayot tajribasining 80-90 % ini ko'z orqali olishlarini aniqlaganlar.

Ko'zning sezgirlari ham xayron qolarlidir. Agar havo musaffo bo'lganida edi, inson 200 km uzoqlikda yonayotgan shamni ko'rishi mumkin bo'lardi. Ko'z bir sekundning mingdan uch kismi davomida yaltiragan yorug'likni seza oladi, ko'z quyosh spektrida bir-biridan farq qiladigan rangni ajratib oladi.

Qanday rang ko'zni ko'proq charchatadi? Ma'lum bo'lishicha, sariq, ko'k, oq ranglarga ko'z tez o'rganib qolar, uncha charchamas ekan. Qizil va moviy ranglar ko'zni tez charchatar ekan. Bir necha maktabda o'tkazilgan tajriba ham shuni

tasdiqladi. Maktabda oddiy matematika misollari Yechiladi. Lekin bu misollar faqat oq qog'ozga emas, och qizil, och ko'k rang qog'ozlarga yozildi. Misollar ko'k qog'ozda oq qog'ozdagiga nisbatan 21,3 % ko'p to'g'ri hal qilingan. Qizil qog'ozdagi to'g'ri hal qilingan misollar esa 19 % kam bo'lgan.

Olimlar tomonidan ko'p yillik tajribalarda to'plangan ma'lumotlar asosida professor YE. B. Ryabkin turli ranglarning ko'zga ta'siri grafigini tuzib chiqdi. Bu grafikka ko'ra, ko'z o'rta to'lqinli ranglar o'zgaruvchi sharoitga moslashishini ham aytib o'tish kerak. Shu xususiyat tufayli inson kunduzi yorug'da ham, tungi zulmatda ham yo'ldan adashmaydi.

Rangni ajrata bilish har kishi uchun eng qimmatli xususiyatdir. Bu xususiyatni saqlash va undan to'laroq foydalanish masalalari bilan tibbiyotning rangni ko'rish gigiyenasi degan tarmog'i shug'ullanadi.

Ba'zi ranglar ko'zni quvontiradi, boshqalari charchatadi. O'rinsiz ishlatigan rangli buyoq mehnat unumdorligini pasaytirishgagina emas, balki jarohatlanishga ham olib kelishi mumkin.

«Ko'z charchadi» degani nima? Buni oson bir tajriba bilan tushuntirish mumkin. Qip-qizil doiraning yarmini qora qog'oz bilan berkitib, doiraning o'rtasiga 30-40 daqiqa tikilib turing. So'ng, qora qog'ozni olib tashlasangiz, qog'oz bilan berkitilgan qismi hiraroq ko'rinadi. Bu bilan rang o'zgarmaydi, balki ko'zning rangga sezgirligi vaqtincha susayadi va ko'k ranglarni oson farq qilishini ko'rsatadi.

### **III- bob. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili**

#### **3.1. Tajriba- sinov ishlarining mazmuni o'tkazish metodikasi.**

Pedagogik amaliyot jarayonida Kasb-hunar kollejining birinchi va ikkinchi kurs talabalarining qalamtasvir va rangtasvir darslarini bevosita kuzatdim. Gurux rahbari har bir natyurmort qo'yilmasini tasdiqlangan aniq namunaviy dastur asosida qo'ydi. O'qituvchi dastlab natyurmort qo'yilmasini og'zaki nazariy asoslab berdi. Talabalarning bergan ba'zi bir savollariga aniq javob qaytardi. SHundan so'ng talabalar amaliy jarayonni boshlab yubordilar.

Natyurmort qo'yilmasini qog'oz sathiga to'g'ri joylashtirish asosiy vazifalardan biridir. SHundan so'ng qo'yilmadagi katta va kichik narsa va buyumlarni fazoviy joylashuviga alohida e'tibor beriladi. Qo'yilmadagi buyumning xarakterli tomonlari aniq ko'rsatilishiga e'tibor beriladi. So'ng talaba rangli bo'yoqlar vositasida ishni davom ettiradi. Dastlab har bir buyum va narsaga suyuq, och tusda rang beriladi. Albatta, akvarel bo'yog'ida ishlash oson emas. Har bir buyum va narsani o'zining haqiqiy rangi emas, balki natyurmort qo'yilmasidagi, yorug'lik tasirida rang-barang matolarning rangi tushayotgan aksi holatida ularning rangi o'zgacha ko'rinadi. SHu narsaga amin bo'ldimki, metodik ketma - ketlikda ishlash ishni sifatli chiqishiga olib keladi. Ishning so'ngi bosqichida natyurmort qo'yilmasining rang jixatidan va tus jixatidan yaxlit bo'lishiga erishish asosiy vazifa ekan. Guruhdagi talabalarining ish saviyasini birma-bir ko'zdan kechirdim. Ayrim talabalar ishni har tomonlama mukammal bajargan. Ba'zilari esa ayrim kichik kamchiliklarga yo'l qo'yganlar.

Men 1-kurs talabalarining birinchi semestrda 2-kurs talabalarining esa uchinchi semestrda ishlarini kuzatdim va tahlil etdim. Quyidagi dalillarga e'tiborni jalb etmoqchiman.

1-kurs talabalarining birinchi semestrda qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlaridagi ishlarining natijalarini foizlarda quyidagicha taqsimladik:

### 3.2. Olingan natijalar tahlili.

	Vazifalar	Javoblar salmog'i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat Guruhi	Tajriba guruhi
1.	<b>I-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: Kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	60,2 % 55,3 % 65,2 % 65,0 %	65,3% 60,3% 70,9% 70,8%
2.	<b>II-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	69,5 % 69,2 % 62,6% 59,4%	74,4% 75,9 % 76,7% 66,9 %
3.	<b>III-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	67,4 % 67,4 % 57,3% 54,4 %	73,7 % 72,4 % 64,3 % 60,7 %
4.	<b>IV-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini:	67,4%	73,3 %

	kompozitsion joylashuvi	67,2%	82,9 %
	qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi	58,3%	63,7 %
	tus jixatdan hal etilishi	67,3%	72,3 %

1-kurs talabalarining ikkinchi semestrda qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlarida o'zgarish ancha sezilarlidir

	Vazifalar	Javoblar salmog'i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	<b>I-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,2% 62,2 % 57,2% 65,3%	65,8% 67,1 % 64,4% 71,6%
2.	<b>II-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,3% 62,3 % 57,2% 65,4%	65,7% 68,2 % 63,3% 70,5%

## 2-kurs talabalarining qalamtasvir va rangtasvir darslarini kuzatish



**jarayonida esa quyidagi dalillarga e'tiborni jalb etmoqchiman. Bu kursda uchinchi semestr qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlarida 4 ta vazifa bajariladi.**

	<b>Vazifalar</b>	<b>Javoblar salmog'i</b> (foiz hisobida)	
		<b>Dastlabki bosqich</b>	
		<b>Nazorat</b> <b>guruhi</b>	<b>Tajriba</b> <b>guruhi</b>
1.	<b>I-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,4% 62,3 % 57,3% 65,3%	66,9% 70,1 % 63,1% 70,8%
2.	<b>II-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,2% 62,2 % 57,2% 65,3%	64,3% 67,5 % 63,5% 71,1%
3.	<b>III-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi	59,2% 62,3 % 57,3% 65,3%	67,9 % 69,3 % 63 % 72,8 %

	tus jixatdan hal etilishi		
4.	<b>IV-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,3% 62,2 % 57,4% 65,3%	66,2 % 69,9% 64,3% 72,1 %

**Ikkinchi semestr vazifalarini kuzatish jarayonida quyidagi  
ma'lumotlar aniqlandi:**

	<b>Vazifalar</b>	Javoblar salmog'i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruh	Tajriba guruh
1.	<b>I-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini: kompozitsion joylashuvi qo'yilmaning fazoviy joylashuvi ranglarda hal etilishi tus jixatdan hal etilishi	59,1% 62 % 57,6% 65,2%	67,3% 70,1 % 66,9 % 72,9 %
2.	<b>II-vazifa.</b> Natyurmort qo'yilmasini:	59,4%	66,9 %

kompozitsion joylashuvi	62,2 %	68,5 %
qo'yilmaning fazoviy joylashuvi	57,1%	65,1 %
ranglarda hal etilishi	65,3%	72,6 %
tus jixatdan hal etilishi		

1 va 2-kurs talabalarining bajargan amaliy ishlarini kuzatib shunday xulosaga keldikki guruh rahbarining bevosita talabalar bilan ijodiy hamkorligi yaxshi natijalar berar ekan. Faqatgina dars jarayonida emas, balki talaba mustaqil o'z ustida tinmay ish olib borishi ham muhimdir. Kasb-hunar kollejidagi talabalarning barcha parametrlar bo'yicha o'sishi bizni to'liq qoniqtirdi.

## XULOSA

O'tkazilgan va tahlil etilgan tadqiqot ishlari natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

Mustaqil O'zbekiston sharoitida shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun mahalliy manbaalardan samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali ularni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, ona Vatanga sadoqat, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan insonlar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdir.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni milliy san'atga va xalq ustalarini ijodini, an'analarni o'rganishga e'tiborlarini jalb etish muhimdir.

O'qituvchilarga mukammal badiiy ta'lim va tarbiya berish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini har tomonlama rivojlangan, chuqur bilimli, keng fikr yurita oladigan o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishlariga erishmoq zarur.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarga milliy san'atimizni o'rgatish bilan bir qatorda, ularni jahon san'ati bilan ham xabardor qilib borish muhimdir. Fikrimning so'ngida shuni aytish mumkinki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun, tinmay o'qishlari, o'rganishlari va izlanishlari zarur.

**Bitiruv malakaviy ishdagi sohaga oid tayanch  
so'zlarning o'zbekcha - inglizcha lug'ati**

1. Akvarel - water-color
2. Qizil - scarlet
3. Anomiya - anatomy
4. Applikatsiya - applique
5. Arxitektor - architect
6. Atribut - attribute
7. Auditoriya – lecture room
8. Qog'oz - paper
9. Sinf dan tashqari – out of class
10. Maktabdan tashqari – out of school
11. Yorug'lik – patch of light
12. Tik – vertical line
13. Suv - water
14. Ko'rgazma - exhibition
15. Galereya - gallery
16. Ufq - horizon
17. Janr - genre
18. Rangtasvirchi - painter
19. Tasvir – representation, picture
20. Interyer - interior
21. Qalam - pencil
22. Asar - picture
23. Kollej - college
24. Tarx - contour
25. Metod - method
26. Metodika - methodic

- 27.Motiv – motive
- 28.Obraz – shape, form
- 29.Ob’ekt - object
- 30.Oxra - ochre
- 31.Portret - portrait
- 32.Praktika - practice
- 33.Realizm - realism
- 34.Qalamtasvir - drawing
- 35.Ritm - rhythm
- 36.Rozetka - rosette
- 37.Simmetriya - symmetry
- 38.Siluet - silhouette
- 39.Haykaltarosh - sculptor
- 40.Ijodiy – creative
- 41.Asar bo’lagi – fragment
- 42.Badiiy – artistic
- 43.Noyob asar – masterpiece
- 44.Ranglavxa - study
- 45.Akademik – academic
- 46.Estetik – aesthetic
- 47.Anatomiya - anatomy
- 48.Qadimgi - ancient
- 49.Istedod - genius
- 50.San’at - art
- 51.Miniatyura - miniature
- 52.Suratlar galereyasi – picture gallery
- 53.Plakat - poster
- 54.Bo’yalgan - coloured
- 55.Hamohanglik - harmony
- 56.Tasavvur qilmoq - imagine

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A.«O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari ».-T.: O'zbekiston, 1995, 9-b.
2. «Xalq ta'limi» jurnali, 1992-yil, 10-12 son, 1-bet.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: SHarq, 1997.
4. Abdullaev N. San'at tarixi. - Toshkent, 1987.
5. Abdullaev N. San'at tarixi. II – qism – Toshkent, 2001.
6. Azimova N. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.
7. Boymetov B, Tolipov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. – Toshkent: 1995.
8. Bulatov S. Amaliy san'at qisqacha lug'ati. – Toshkent: HBM, 1992.
9. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy san'ati. – Toshkent: Mehnat, 1994.
10. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. – Toshkent, 1993.
11. Maxmudov T. Abdulxaq Abdullaev (albom). – Toshkent, 1987.
12. Nabiev M. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.
13. Oripov B. Tasviriy san'at iboralarining izohli lug'ati. N., 2003.
14. Oydinov N. Rassom – o'qituvchilar tayyorlash muammolari. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
15. Umarov A. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zTSMU, 1998.
16. Turdaliev A. Kompozitsiyaga oid tayanch iboralar. N., 2004.
17. Abdurahmonov G'. Kompozitsiya. – Toshkent: 2010.
18. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -Toshkent., O'qituvchi: 2004.
19. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU, 2004.
20. Hasanov R. Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga joriy etish.- Toshkent, 2000.

21. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2004.
22. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. -Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009.
23. Boymetov B. Qalamtasvir. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2006.
24. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2006.
25. Abdirasilov S.,Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. –Toshkent: Ilm Ziyo 2010.